



**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O`RTAMAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI  
INGLIZ TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI**

*Qalqonova Zulayhoning*

*“5220100 filologiya(ingliz tili)” ta`lim yo`nalishi bo`yicha bakalavr darajasini  
olish uchun*

*“Hozirgi zamon ingliz tilida ravih so`z turkumi”*

*mavzusida yozgan*

# **BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy rahbar : o`q. S.Avlayeva**

“Himoyaga tavsiya etildi”

Xorijiy tillar fakulteti

dekani \_\_\_\_\_ f.f.n.Y.N.Hamrayeva

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2017 yil

**Qarshi 2017 yil**

## MUNDARIJA

**KIRISH**.....

### **I BOB. Ravish -- so'z turkumi sifatida**

1.1. So'z turkumlari haqida umumiy ma'lumot.....

1.2 Ravish haqida umumiy ma'lumot, ravishlarning shakliga ko'ra turlari ...

1.3. Ravishlarning semantik jihatdan turlari .....

1.4 Ravish darajalari .....

### **II BOB. II BOB Ravish so'z turkumi va ravish so'z turkumiga oid muammolar**

2.1 Ravishlarning gapdagi o'rni va vazifalari .....

2.2 Ravish so'z turkumi yasalishi va ravish so'z turkumiga oid muammolar....

2.3 Ravishlarning sintaktik-semantik tahlili.....

**XULOSA** .....

Foydalanilgan ilmiy adabiyotlar.....

Foydalanilgan badiiy adabiyotlar .....

Foydalanilgan lug'atlar.....

## KIRISH

Respublikamiz mustaqillikni qo'lga kiritgach, o'z yo'lini, rivojlanish dasturini mamlakatning o'ziga xosligi, tarixi, madaniyati hamda rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalangan holda belgilab oldi. O'zbekistonning mustaqilligi oson va o'z - o'zidan qo'lga kiritilmadi, balki birinchi prezidentimi I.A.Karimov rahnamoligidagi xalqimizning sobitqadam va sermashaqqat faoliyatining natijasi bo'ldi. Shu ma'noda istiqlol kimningdir in'omi emas, balki ko'plab kurashlar, muntazam hamda samarali faoliyat asosida qo'lga kiritilgan qonuniy natija, xalqimizning ulkan yutug'idir.

O'zbekiston respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", O'zbekiston Respublikasi hukumatining umumiy o'rta ta'limni rivojlantirishga qaratilgan qarorlari, xalq ta'limi vazirligining buyruqlari, birinchi prezidentimiz I. A. Karimovning ta'lim tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan qarorlari, unda bayon etilgan yondashuvlari, tadqiqot muammosiga oid ilmiy-metodik pedagogik adabiyotlarga tayanilgan.

Vatan va inson manfaati - oliy maqsad. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov shunday degan edi: "Bugun biz tarixiy davrda – xalqimiz o'z oldiga ezgu va ulug' maqsadlar qo'yib, tinch osoyishta hayot kechirayotgan, avvalambor, o'z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyat qurish yo'lida ulkan natijalarni qo'lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz". Avvalo, tarixan qisqa bu davrdavomida davlatimiz uchun ijtimoiy va siyosiy sohada, davlat va jamiyat qurilishi borasida har tomonlama rivojlanish va yuksalish davri bo'lganligi bugun hech kimga sir emas.

O'zbekiston jahon hamjamiyatiga tenglashib borar ekan, mamlakatimizda ham ingliz tilining ahamiyati oshib bormoqda. Shuningdek xalqaro tarmoq (internet)

materiallarini, ko'plab fan-texnika yangiliklarini ingliz tilida topish mumkin. Biz ingliz tilini nafaqat mamlakatimiz rivojiga hissa qo'shishi mumkin bo'lgan fan texnika yangiliklari, xalqaro muloqot uchun o'rganamiz balki mamlakatimiz tarixi, buyuk ajdodlarimiz haqida ma'lumot berish, an'analarimiz, madaniyatimizni

targ'ib qilish uchun ham o'rganishimiz zaruratga aylandi. Shu sababli ingliz tilining ta'lim sohasida ahamiyati oshdi. Mamlakatda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunini hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish doirasida chet tillarga o'qitishning kompleks tizimi, ya'ni uyg'un kamol topgan o'qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, respublikaning jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuviga yo'naltirilgan tizim yaratildi. "Mustaqillik yillarida 51,7 ming nafardan ziyod chet tillar o'qituvchilari tayyorlandi, umumta'lim maktablarining 5-9 sinflari uchun ingliz, nemis va fransuz tillari bo'yicha multimedia darsliklari, boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'rganish bo'yicha elektron resurslar tayyorlandi, umumta'lim maktablarida, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda 5 mingdan ko'proq lingafon kabinetlari jihozlandi." [11]

Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish yo'li bilan, o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o'qitish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlashtirishni tubdan takomillashtirish hamda buning negizida, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish maqsadida birinchi prezidentimiz I. A. Karimov tomonidan 2012-yil dekabr oyida "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Qarori qabul qilindi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda fan va ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratilishi tadqiqotchilar oldiga tilshunoslikning nazariy va amaliy sohalarida mas'uliyatli vazifalarni qo'yimoqda. Bunday vazifalardan biri chet tillarni o'rganish va o'rgatishdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning ta'бири bilan aytganda, "Bugun jahon hamjamiyatidan o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda,

hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir"<sup>1</sup>.

Yurtimizda barcha rivojlangan davlatlar qatori ilm-fan rivoji va taraqqiyoiga katta e'tibor qaratilmoqda. Buning isboti sifatida prezidentimiz Sh.M.Mirziyoy tomonidan joriy yilda qabul qilingan "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", "Toshkent axborot texnologiyalari universitetining faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarini aytib o'tish joizdir. Aytib o'tilgan birinchi qarordan maqsad akademik litseylarda o'quv jarayoni sifati va samaradorligini tubdan oshirish, eng qobiliyatli talabalarni akadem litseylarda jamlash, umumta'lim maktablari bitiruvchilarining tanlangan kasblar va mutaxassisliklarni egallashga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun shart-sharoitlarni kengaytirish maqsadida qaul qilindi. Ikkinchi qaror ijrosi sifatida iqtidorli talabalar uchun Muhammad al-Xorazmiy nomidagi stipendiyani joriy etish, iqtidorli talabalar, yosh olimlar va professor-o'qituvchilarning istiqbolli ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari va ilmiy maqolalari davriy ravishda e'lon qilib boriladigan "Muhammad al-Xorazmiy avlodlari" nomli ilmiy jurnalini ta'sis etish tavsiya qilingan.

Ta'lim - tarbiyaga ayniqsa oliy ta'limda berilayotgan ta'limga qaratilayotgan e'tibor 2017 yil 20 aprelda prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"<sup>2</sup>gi qarorda ham o'z aksini topgan. Ushbu qarorda oliy ta'lim tizimini kelgusida yanada takomillashtirish kompleks rivojlantirish bo'yicha eng muhim vazifalar belgilangan.

**Mavzuning dolzarbligi.** Mamlakatimizda ingliz tili o'rganish ahamiyatli ekan uni tadbiqetish, har tomonlama chuqur o'rganish ham muhim. Ingliz tili faniga oid o'zbek tilidagidarsliklari kam. Ingliz tilida ravish so'z turkumining o'ziga xos xususiyatlari, uning ta'siri haqida izlanish olib borar ekanman, ravish

---

<sup>1</sup>Каримов И.А. Баркамол авлод- Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Тошкент: Ўзбекистон,1998. – Б. 8.

<sup>2</sup>“Xalq so'zi” gazetasi 2017 y 21 aprel soni

soʻz turkumi boʻyicha qator hal etilmagan masalalarga duch keldik. Masalan, ravish faqat feʼlning belgi va xossasini ifodalab keladimi? Agar ot va sifatni ham ifodalab kelsa, uni ravish sifatida qanday aniqlash mumkin? Sifatdan qanday farqlash mumkin? Ravish feʼl bilan kelib birikma hosil qili hodisasini qanday nomlash mumkin? Bu tilshunoslik nuqtai nazaridan yondashilgan savol.

**Ishning maqsadi va vazifalari.** Ushbu malakaviy ishning asosiy maqsadi oʻzbek, rus, ingliz olimlarining ravish soʻz turkumi ustida olib brogan izlanishlarini oʻrganib chiqish, oʻrganilgan maʼlumotlar asosida ravishning gapdagi funksiyasini,, sintaktik-semantik belgisini aniqlash.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi.** Mazkur bitiruv malakaviy ishining maqsadi ravishning gapdagi oʻrni va vazifalarini misollar yordamida oʻrganib chiqish, ravishlarni sintaktik komponent sifatida prof.A.M.Muxin nazariyasiga asoslanib, ularni gapdagi ishtirokiga koʻra sintaktik-semantik analiz qilish. Ravishlarni sintaktik-semantik analiz qilishda ingliz yozuvchilarining asl asarlaridan foydalanildi va ularning gapda turli sintaktik-semantik maʼnolarda kelganligini lingvistik eksperiment metodlari orqali isbotlashdan iborat.

**Bitiruv malakaviy ishining obyekti.** Mazkur bitiruv malakaviy ishining obyekti sifatida hozirgi zamon ingliz tilida ravish soʻz turkumini va uning gapdagi oʻrmini oʻrganishdir.

**Bitiruv malakaviy ishining ilmiyligi va amaliy ahamiyati.** Yuqorida aytib oʻtilganidek, hozirgi zamon ingli tilida ravish soʻz turkumini mustaqil soʻz turkumi sifatida olimlar fikrini oʻrganib chiqish, hamda prof.A.M.Muxin nazariyasiga binoan ravish soʻz turkumining sintaktik va sintaktik-semantik tahlilini oʻrganish orqali ularning turli sintaktik-semantik maʼnolarini ifodalashini kasb etishi BMIning ilmiyligini tashkil etadi. Mazkur bitiruv malakaviy ishining ilmiy-nazariy xulosalari ingliz tilining nazariy va amaliy grammatikasi fanlari uchun ilmiy qiymatga ega boʻlib, ravish soʻz turkumi mavzusida ilmiy maqolalar yozishda, ingliz tili grammatikasidan shu mavzuda amaliy mashgʻulotlar oʻtishda foydalanish mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida ishning dolzarbligi, maqsadi va vazifalari, obykti, ilmiyligi va amaliy ahamiyati bayon qilingan.

I Bobda hozirgi zamon ingliz tilidagi so'z turkumlari va ularning klassifikatsiyalarining asosiy prinsiplari va son so'z turkumi haqida umumiy ma'lumot, ularning ma'nosiga turlari bayon etilgan.

So'z turkumlarining mohiyati, turlariga oid tilshunos olimlarning nazariy fikrlari va qarashlari bayon etilgan. Bundan tashqari son so'z turkumi haqida va ularning anglatgan ma'nolari va grammatik belgilariga ko'ra turlari haqida batafsil to'xtalib o'tilgan

II Bobda Ravish so'z turkumining o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan, ravishga oid muammolar tahlil qilingan, gap strukturasi sintaktik hamda sintaktik – semantik belgilari misollar yordamida tahlil qilingan.

Tadqiqot natijasida hosil qilingan fikrlar xulosada umumiyashtirilgan.

Ushbu bitiruv malakaviy ishi 60 betdan iborat bo'lib, ishning oxirida foydalanilgan ilmiy va badiiy adabiyotlar, lug'atlar ro'yxati, ilova berilgan.

**Tadqiqotning metodologik asosi** sifatida O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimovning asarlari, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" haqidagi qonunlari va boshqa me'yoriy hujjatlari olindi. Mavzuning metodologik asosi sifatida B.Ilish, L.S.Barxudarov, J.Bo'ranov, O.Esperson, I.R.Galperin, A.M.Muxin, V.V.Vinogradov, A.Shaxmatov va boshqa olimlarning fikrlaridan foydalandik.

Bitiruv malakaviy ishida ravish so'z turkumining gap tuzilishida tutgan roli va o'rni, boshqa gap bo'laklari bilan sintaktik munosabatlari ingliz yozuvchilarning badiiy asarlaridagi jonli misollar orqali yoritib berishga harakat qilindi.

## **I BOB Ravish -- so'z turkumi sifatida**

### **1.1 Hozirgi zamon ingliz tilidagi so'z turkumlari haqida ma'lumot**

Ma'lumki, har qanday fan tabiat va jamiyatda mavjud bo'lgan turli narsa va hodisalarni, inson bilan bog'liq xususiyatlarni o'rganadi. Ularni o'rganish esa mavjud bo'lgan narsa, xususiyat va hodisalarni to'plamlarga bo'lishdan boshlanadi: "O'rganish uchun olingan turli narsa, voqea-hodisalar yig'indisi to'plam deyiladi. To'plamni o'xshash va farqli belgilar asosida ichki guruhlariga bo'lish tasnif hisoblanadi"<sup>3</sup>.

So'zlarni turkumlarga ajratish juda qadimdan boshlangan. Qadimgi hindlar turkumlarni uchga ajratishgan: otlar, fe'llar, yordamchilar. Arablar ham uchta turkumni farqlashgan: ismlar, fe'llar, yordamchilar. Qadimgi yunonlar, jumladan, Arastu fe'l va yordamchilarni ajratgan holda ismlar ichidan sifatlar, sonlar va olmoshlarni farqlaganlar (demak oltita turkumni farqlashgan). G'arb va rus tilshunoslari mustaqil so'z turkumlarini oltitaga ajratadilar: ot, sifat, son, olmosh, fe'l va ravish. Rus tilshunoslari ot, sifat, son va olmoshni ism bildiruvchi so'zlar sifatida ajratadilar. Turkiy tilshunoslikda ham qadimdan ot, sifat, son va olmoshlarni ajratishgan<sup>4</sup>. Ma'lumki, ot, sifat, son va olmoshlar egalik, kelishik va ko'plik shakllari bilan o'zgaradi. Egalik va kelishik shakllari bu turkumlarni, shuningdek, harakat nomi, sifatdosh va taqlid so'zlarni ham o'zgartirishi mumkin. Shu sababli egalik, kelishik va ko'plik shakllari bilan o'zgaradigan barcha turkumlarni bitta umumiy nom – ismlar deb birlashtirish mumkin.

Tildagi so'zlarning umumiy grammatik ma'no va vazifalariga ko'ra ma'lum guruhlariga bo'linishi so'z turkumlari deb yuritiladi.

1. Mustaqil so'z turkumlari lug'aviy ma'noga ega bo'lib, biror so'roqqa javob bo'ladigan, gap ichida ma'lum sintaktik vazifa bajaradigan so'zlardir. Bu guruhga ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish kiradi.

2. Yordamchi so'zlar yakka holda ma'no anglatmaydigan, gap bo'lagi bo'la olmaydigan, Grammatik ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladigan so'zlardir. Ular

---

<sup>3</sup>N.Mahmudov va b. Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun. T., 2005 yil

<sup>4</sup>Hamroyev M.A. Ona tili. Toshkent 2008



mustaqil soʻzlar va ayrim gaplar orasidagi munosabatni anglatishga xizmat qiladi, soʻzga va gapning mazmuniga turli qoʻshimcha maʼnolar qoʻshadi. Yordamchi soʻzlarga koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama kiradi.

3. Alohida olingan guruh soʻzlar lugʻaviy maʼno bildirmaydigan, lekin baʼzan gap boʻlagi vazifasini bajaradigan soʻzlardir. Bularga modal soʻzlar, undov soʻzlar, taqlid soʻzlar kiradi.

Boshqa tillarda boʻlgani kabi ingliz tilida ham barcha soʻzlar anglatgan leksik-grammatik maʼnosi, morfologik formasi va oʻzaro sintaktik aloqaga kirishish hamda gapdagi vazifasiga koʻra maʼlum guruhlariga boʻlinib, ular grammatikada soʻz turkumlari deb yuritiladi.

Ingliz tilidagi soʻz turkumlarini turli olimlar turlicha talqin qiladilar. Masalan: 1) Dionskiy oʻzidan avvalgi olimlarning asarlariga tayanib soʻzlarni quyidagi sakkiz turkumga ajratadi:

- 1.Ot, 2.Feʼl, 3.Sifatdosh, 4.Artikl, 5.Olmosh, 6.Predlog,
- 7.Ravish, 8.Bogʻlovchi

Tilshunoslar Dionskiy va Diskolning kamchiliklarini ularning izdoshlari, yaʼni shogirdlari toʻldirishdi. Grammatik kategoriyalarni takomillashtirish yoʻlida

Boʻronov J.B Ingliz tili va oʻzbek tillari qiyosiy grammatikasi. T.1993 stoiklar tomonidan quyidagi ishlar qilindi.

1. Soʻz turkumlari tushunchasiga aniqlik kiritildi.
2. Tilda ifodalovchi va ifodalanuvchi elementlar borligi koʻrsatildi.
3. Ot kategoriyasiga sredniy rod tushunchasi kiritildi.

Butun dunyo tillarida soʻz turkumlarining oʻrni beqiyosdir. Barcha tillardagi soʻzlar turkumlarga ajratilib oʻrganiladi<sup>5</sup>.

J.Boʻronov, M.Boʻronova, M.Toshboyevalar tomonidan yozilgan “Inliz tili grammatikasida soʻz turkumlari 14 ta deb koʻrsatiladi.

1. Ot (Noun)
2. Sifat (The Adjective)

---

<sup>5</sup>1. J.Boʻronov, M.Boʻronova, M.Toshboyeva. “Ingliz tili grammatika”si oʻqituvchi. T. 1978 5 bet.

3. Olmosh (The Pronoun)
4. Son (The Numeral)
5. Fe`l (The Verb)
6. Ravish (The Adverb)
7. Holat kategoriyasi (The Cat, of state, The Adf)
8. Modal so`zlar (The Modal words)
9. Predlog (The Preposition)
10. Yuklama (The Particle)
11. Bog`lovchi (The Conjunction)
12. Undov so`zlar (The Interjection)
13. Artikl (The Article)
14. Javob so`zlar (The Response words)<sup>6</sup>

Ganshina esa so`z turkumlarining 13 ta deb ko`rsatadi. Ular quyidagilar:

1. Ot (The Noun)
2. Sifat (The Adjective)
3. Olmosh (The Pronoun)
4. Son (The Numeral)
5. Fe`l (The Verb)
6. Ravish (The Adverb)
7. Predlog (The Preposition)
8. Bog`lovchi 9The Conjunction)
9. Artikl (The Article)
10. Yuklama (The Particle)
11. Modal so`zlar (The Modal words)
12. Tasdiq va inkor gaplar (words of and negative sentences)
13. Undov so`zlar (The Interjection)

Hozirgi zamon ingliz tilidagi so`z turkumlari klassifikatsiyasi so`zlarning quyidagi xususiyatlariga ko`ra ya`ni

---

<sup>6</sup> Ganshina MA va Vaselevskayaning "English Grammar" asarida Higher school publ. House. M. 1964.

- A) Leksik va leksik grammatik ma`nolarga ko`ra;
- B) Morfologik formalarning ma`lum bir guruhlarga kiruvchi so`zlar uchun umumiyligiga ko`ra;
- C) So`zlarning gapdagi roliga ko`ra aniqlanadi.

Sozlarni guruhlarda bo`lishda ularning leksik ham grammatik formalari hisobga olinganligi uchun so`z turkumlari leksik grammatik razryadllari ham deyiladi. Masalan, ot turkumiga kiruvchi so`zlarning hammasi predmet nomini bildirib keladi. Ammo shuni qayd etish kerakki, hamma oylarning predmet bo`lishi shart emas.

Ayrim so`zlar predmetni bildirmasada baribir predmet o`rnida ishlatiladi. Masalan, ingliz tilidagi love- sevgi , joy- quvonch. O`zbek tilidagi do`stlik baxt va hokazolardir.

Har bir so`z turkumiga mansub so`zlarning o`ziga xos morfologik formalari bo`lib, u formalar morfologik paradigmalarni tashkil qiladi. Masalan, ingliz tilidagi otga qo`shilgan –s qo`shimchasi son kategoriyasini. yu feldagi –yed qo`shimchasi esa zamon kategoriyasini anglatadi. Bundan tashqari har bir so`z turkumiga kiruvchi so`zlar gapda ma`lum sintaktik vazifani ham bajarib keladi. Masalan, ot asosan ega, to`ldiruvchi, kesimning predikativ qismi vazifasida sifat aniqlovchi kesimning predikativ qismi vazifasida, fe`l asosan gapning kesimi, ravish xoli vazifasida kela oladi. Ikki va undan ortiq so`z turkumi gapda bir xil vazifani bajarib kelishi mumkin. Bu hozirgi ingliz tilidagi ot va fe`lda ayniqsa yaqqol ifodalanadi. Hozirgi ingliz tilida morfologik ko`rsatkichga boy emas. Shuning uchun ham bir so`z turkumining formasi o`zining boshlang`ich formasi yoki o`z paradigmasining dastlabki formasida kelganida ikkinchi so`z turkumidan farq qilmasligi mumkin.

Masalan, water, telephone, mistake sozlari (bilan) bir vaqtning o`zida ham ot, ham fe`l vazifasida keladi. So`z turkumlarining bir qismi yuqorida ko`rsatib o`tilgan har uchala hususiyatga ham ega bo`lishi ayrimlari esa leksik ma`no va morfologik formaga ega bo`lsada gapda mustaqil gap sifatida ishlatilmasligi mumkin. Shu munosabat bilan so`z turkumlari ikki qismga:

1. mustaqil so`z turkumlari
2. yordamchi so`z turkumlariga bo`linadi

Mustaqil so`z turkumlariga kiruvchi so`zlar leksik nuqtai nazardan mustaqil ma`no ifodalab, boshqa so`zlar yordamisisiz ham predmetlarini atab, miqdorini, belgisini qay darajada bajarilishini so`zlovchining o`z nutqi mazmuniga bo`lgan aloqasini ko`rsatadi. Mustaqil so`z turkumlari gramatik tomonidan ma`lum gramatik kategoriyalar bilab bog`liq bo`lgan paradigmatic formalariga ega bo`lib, gapda ma`lum bir vazifani bajarib kelishi mumkin.

Yordamchi so`z turkumlariga gapda mustaqil maxsus ma`no anglatmay mustaqil so`zlarni bir-biri bilan gramatik aloqaga kiritib ular o`rtasidagi semantik, sintaktik munosabatni ko`rsatuvchi gap bo`lagi vazifasida qo`llanilmaydigan so`z turkumlariga kiradi. Yordamchi so`z turkumlariga gap tarkibida urg`u tushmaydi. Ingiliz tilida yordamchi so`zlarga asosan predloglar va bog`lovchilar o`zbek tilida esa ko`makchi va bog`lovchilar kiradi.

Ot , sifat, olmoshlarning bir qismi ayrim ravishlar va fe`llar o`zgaruvchi so`z turkumlarini, qolganlari esa, o`zgarmaydigan so`z turkumlariga tashkil qiladi.

Har bir analitik formada ham leksik, ham grammatik formalar mavjud bo`lib, leksik element grammatik ma`no bilan qisman bo`g`liq bo`ladi. Masalan: perfekt kategoriyasini ifodalovchi analitik formada to have ko`makchi fe`li grammatik kategoriyani ifodalasa asosiy fe`l leksik ma`noni va qisman grammatik ma`noni ifodalaydi. So`z turkumlari anglatgan leksik-grammatik ma`nolari morfologik formasi yoki ma`lum paradigma yasashi, boshqa so`zlar bilan birika olishi olish gapdagi vazifasi ma`lum suffikslar vositasida yasalishi yo derivatsion kontrasdiga ko`ra guruhlarga ajratiladi.

1. Leksik grammatik ma`no deganda ma`lum so`z turkumiga kiritilgan har bir so`zning alohida ifodalagan konkret naminativ ma`nosi ham umumlashgan grammatik ma`no tushuniladi.

Masalan; book, popular, government, peace kabi so`zlarning har alohida lug`aviy ma`noni anglatadi. Shu bilan birga ularning hammasi uchun birga ularning hammasi uchun umumiy bo`lgan predmetlik ma`nosi mavjud.

Ko`rsatilgan har ikkala ma`no so`z turkumlarining asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi.

2. Morfologik forma. So`zlarning kategorial paradigmatic formalari bo`lib, grammatik ma`noni ifodalash uchun ishlatiladi.

3. Boshqa so`zlar bilan birikish deganda har bir so`z turkumining bir va ikki tomonlama ya`ni yo o`ng yoki chap tomondagi so`zlar bilan birika olish imkoniyati tushuniladi.

4. So`zlarning gapdagi roli so`z turkumlarining o`ziga xos xususiyatini aniqlashdagi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ayrim so`z turkumlari gapda gap bo`lagi vazifasida kelsa, ayrimlari bu vazifani o`tay olmaydi. Shunga binoan so`z turkumlari (national parts of speech) va yordamchi so`z turkumidagi (structural parts of speech) bo`linadi. Ot, sifat, son, olmosh, ravish, fe`l, holat kategoriyasi va boshqalar mustaqil so`z turkumlari hisoblanadi, predlog, bog`lovchi va boshqalar yordamchi so`z turkumlari hisoblanadi.

5. Derevatsion konkret so`z turkumlarining ma`lum so`z yasovchi affikslar bilan birga ishlatilishiga bog`liq. Ma`lumki, yangi so`z yasalganda faqat yangi leksik birlik yasabgina qolmay bir vaqtning o`zida yangi so`z turkumining ham yasaladi. Predlog (The Preposition) J.X. Hoshimovning “ Ingliz tili grammatikasining normativ kursi” asarida mustaqil ma`no anglatmay, ot, olmosh va boshqa so`z turkumlarining ma`nolarini to`ldirib, ularning bir-biriga, shuningdek ma`lum hodisaga ega bo`lgan munosabatini bildiruvchi yordamchi so`z turkumlari predloglar deyiladi<sup>7</sup>, deb aytib o`tilgan.

Hozirgi ingliz tilidan morfologik yoki kengroq qilib aytganda grammatik forma yo sentetik yo analitik tarzda ifodalanishi mumkin.

a) Sintetik forma so`z shaklini yasovchi Grammatik formalarini qo`shish yoki ichki fleksiya vositasida yasaladi. Masalan: He works. U ishlaydi. He worked. U ishladi. He knows many languages. U ko`p tillarni biladi.

Yuqoridagi gaplarda grammatik forma suffiksatsiya yordamida yasalgan chunki grammatik formalar hisoblanuvchi – s (shaxs, son va zamon

---

<sup>7</sup>Hoshimov J.X. ingliz tili Grammatikasi T.1968

qo`shimchalari), - ed (o`tgan zamon formasini yasovchi qo`shimcha), (e) – s (ko`plik son qo`shimchasi) so`z negizida to`g`iridan to`g`ri agglyutinatsiya usulida qo`shilyapti. Ichki fleksiya so`zlarning o`zagidagi unlillarni o`zgartirish vositasida so`z formalari yoki grammatik kategoriyalar yasashdir.

Masalan: I wrote a letter to my friend. ( Men do`stigma xat yozdim).

My sister has very beautiful teeth ( Sinlimning tishlari juda chiroyli) gaplarida wrote (yozdim) fe`lning o`tgan zamon formasi ichki fleksiya ( ya`ni ablaut) vositasida yasalgan. Hozirgi ingliz tilida ichki fleksiya juda keng tarqalgan bo`lib qo`llanmasada hamon o`z ifodasini yo`qotgani yo`q.

Sintetik formalar qatorida ma`lum o`rinni turli so`z turkumlari uchun xos bo`lgan seppletiv formalar deb yuritiluvchi maxsus Grammatik formalar egallaydi. Suppletivizm ma`lum grammatik kategoriyani turli o`zaklardan yasalgan formalar vositasida ifoda etilishidir.

Masalan:

I – we ( men, biz)

he, she, it – they (u,ular)

good – better – best (yaxshi- yaxshiroq – eng yaxshi)

bad –worse – worst (yomon – yomonroq – eng yomon)

to go-went-gone (ketmoq-ketdi)

to see – saw – seen (ko`rmoq – ko`rdi – ko`rgan)

“to be” - bo`lmoq fe`lning turli formalari:

am – (was)

is, are, - was, were

b) Analitik forma ikki va undan ortiq so`zlarning o`zaro qo`shilishi vositasida yasalib, ulardan biri o`z leksik ma`nosini to`la saqlab qoladi. qolganlari esa, faqat grammatik ma`nolarni anglatish uchungina ishlatiladi.

Har bir analitik formada ham leksik, ham grammatik formalar mavjud bo`lib, leksik element grammatik ma`no bilan qisman bo`g`liq bo`ladi. Masalan; perfekt kategoriyasini ifodalovchi analitik formada to have ko`makchi fe`li

grammatik kategoriyani ifodalasa asosiy fe`l leksik ma`noni va qisman grammatik ma`noni ifodalaydi.

So`z turkumlari haqida umumiy ma`lumot so`z turkumlari haqidagi muammo umumiy tilshunoslik nazariyasida va har bir til tahlilida eng ko`p munozarali muammolardan biridir.

So`z turkumlari tasnif qilish uch turdagi prinsipga asoslanadi:

1. Ma`no
2. Shakl
3. Funksiya<sup>8</sup>

1) Ma`no deganda bir ma`lum bir guruhga kiruvchi hamma so`zlarning umumiy ma`noni va моҳиятини тушунамиз. Масалан, “от” туркумига тўхталаган бўлсак, “от” сўз туркумининг so`z sifatidagi ma`nosi ish harakatini bildiradi.

2) So`z turkumining shakl deganda biror bir so`z turkumiga kiruvchi so`zlarning morfologik haraktiristikasi nazarda tutiladi. Shunday qilib “ot” so`z turkumi son kategoriyasi (ko`plik, birlik) bilan xarakterlansa fe`l so`z turkumi zamon, mayl kategoriyalari bilan xarakterlanadi. Predlog bog`lovchi kabi bir qator so`zlarning shakli o`zgarmasligi bilan xarakterlanadi.

3) Funksiya deganda bir so`zning sintaktik xususiyatini tushunamiz, bu esa ikkiga bo`linadi:

1. uning boshqa so`zlar bilan birikishi;
2. uning gapdagi vazifasi.

Masalan: fe`l so`z turkumiga oid so`zni olib qaraydigan bo`lsak “fe`l, ot” so`z turkumi bilan birga birikadi: “ write letters, discuss questions” va shu bilan birga fe`l so`z turkumi ravish bilan ham bilan birikadi: “ write quickly, discuss seriously.” Fe`l so`z turkumining gapdagi sentaktik funksiyasi kesimdir.

Ko`pchilik olimlar so`z turkumlarinini morfologiyaning bir bo`lagi deb qarashadi, lekin shunga qaramay so`z turkumlarini sinteksisga bog`lab o`rganmaslik xato bo`ladi. Shu muammoga turli olimlar fikr bildirganlar Akademik A.A.Shaxmatovning fikricha so`z turkumlari sintaksisda o`rganilishi

---

<sup>8</sup> B.I.Lyish “The structure of Modern English” Leningrad 1971.

kerak<sup>9</sup>. Tilshunos olim B.Ilish soʻz turkumlarining nazariyasini baʼzi sentektik jixatlarini ham oʻz ichiga olgan holda marfalogiyaning asosiy qismi deb qaraydi<sup>10</sup>. Tilshunos olim E.M Gordon soʻz turkumlariga quyidagicha qaraydi: “ har bir tildagi mavjud soʻzlar maʼlum soʻz turkumlariga mansub boʻlib har bir soʻz turkumi oʻz xususiyatiga ega. Soʻz turkumlari bir-biridan maʼnosi, formasi va gapdagi funksiyasiga koʻra farq qiladi.<sup>11</sup>”

Har bir soʻz tarkibining oʻz leksik maʼnosi bor. Masalan, feʼl soʻz turkumi ish harakatni ifodalasa, ot, soʻz turkumi obʼekt narsalarni nomini anglatadi, sifat soʻz turkumi esa predmetning belgisini bildiradi, ravish soʻz turkumi feʼlning holatini ifodalaydi.

Baʼzi soʻz turkumlari turli grammatik kategoriyalarga ega masalan, feʼl soʻz turkumi mayl kategoriyasi, zamon, nisbat, shaxs son, kabi kategoriyalarga ega boʻlsa ot soʻz turkumi son va kelishik kategoriyalariga, sifat soʻz turkumi esa darajalarga ega. Qolgan soʻz turkumlari esa faqat bitta formaga ega. Bunday soʻz turkumlariga esa predlog, bogʻlovchi, yuklama kabi soʻz turkumlari kiradi.

Soʻz turkumlari bir-biridan oʻz sintetik funksiyalariga koʻra farq qiladi. Feʼl soʻz turkumi gapda kesim vazifasida ot odatda ega yoki toʻldiruvchi, sifat aniqlovchi yoki predekativ boʻlib keladi, ravish esa hol funksiyasida keladi.

V.I.Kaushanskaya<sup>12</sup> ham soʻz turkumlarini mustaqil va yordamchi soʻz turkumlariga boʻladi. Mustaqil soʻz turkumlari gapda ega kesim, aniqlovchi, toʻldiruvchi yoki hol kabi maʼlum bir sintaktik funksiyani bajaradi.

Mustaqil soʻz turkumlari: Ot, Sifat, Son, Olmosh, Feʼl, Ravish, Holat kategoriyasi, Modal soʻzlar, Undalma.

Yordamchi soʻz turkumlarini Kaushanskaya struktura soʻz turkumlari deb ataydi. Struktural soʻz turkumlari gapda soʻzlarni bogʻlaydi. Ular gapda mustaqil funksiyani bajarmaydi.

---

<sup>9</sup> А.АШахматов Синтаксис русского языка м,1941

<sup>10</sup> В.Ильиш The Structure of modern English L.1971

<sup>11</sup> E.M.Gordon, “A Gramma of present day English” M.1974.

<sup>12</sup> V.I.Kaushanskaya “A grammar of the English language” L.1973.



Struktural soʻz turkumlariga Kaushanskaya quyidagi soʻz turkumlari kiritadi:

Predlog, Bogʻlovchi, Yuklama, Artikl

Tilshunos olimlar K.N Kachalova, E.E Izrailovich<sup>13</sup>lar soʻzlarni quidagi belgilariga koʻra soʻz turkumlariga koʻra ajratishadi:

1. maʼnosiga koʻra
2. gapdagi vazifasiga koʻra
3. soʻz yasash formasiga koʻra
4. soʻz oʻzgarish formasiga koʻra

Ingiliz tilida soʻz yasaliş formasi va soʻz oʻzgarish bir soʻz turkumi boshqa soʻz turkumidan ajratishga iuchalik ahamyat kasb etmaydi. Tilshunos olim K.N.Kachalova<sup>11</sup> soʻz turkumlarini quyidagi soʻz turkumiga ajratadi: ot, sifat, son, olmosh, feʼl, ravish, predlog, bogʻlovchi, undalma.

K.N Kachalova ot, sifat, son, olmosh, feʼl va ravishni ularni gapdagi predmetini belgini ish harakatini va gapda maʼlum bir sintaktik funksiyani bajarganligi uchun mustaqil soʻz turkumlariga ajratadi.

Undalmani Kachalova mustaqil soʻz turkumiga ham yordamchi soʻz turkumiga ham kiritmaydi, chunki ular gapda hech qanday sentaktik funksiyani bajarmaydi.

Mustaqil soʻzlarning aniq leksik maʼnosi boʻlib gapda mustaqil funksiyani bajaradi. Ular gapda gapning bosh va ikkinchi darajali boʻlaklari boʻlib kelishi mumkin. Mustaqil soʻzlarga feʼl, sifat, ot, son, olmosh va ravish soʻz turkumlariga kiruvchi soʻzlar kiradi. Masalan ot, olmosh gapda ega va toʻldiruvchi vazifasida keladi, feʼl esa kesim vazifasida keladi, sifat aniqlovchi vazifasida, ravish koʻpincha hol, son esa ega, aniqlovchi, kesim vazifasida kelishi mumkin.

Yordamchi soʻzlar mustaqil soʻzlardan semantik jihatdan farq qiladi. Yordamchi soʻzlar gapda biror bir funksiyani bajarmaydi. Lekin ular gapda soʻzning maʼnosini aniqlaydi. Masalan: “The” yoki “a” artikllarni olib qaraydigan boʻlsak quyidagicha boʻladi:

---

<sup>13</sup>K.N. КачаловаЕ.Е израилович “Практическая грамматика английского языка” М.1996.

A Tree	The tree
Daraxt	Daraxt
(Noma`lum)	(ma`lum)

Ingliz-tilida artikl, yuklama, predlog va bog`lovchilar yordamchi so`z turkumlariga kiradi. Mustaqil elementlar turli ma`nolari bilan harakterlanadi. Mustaqil elementlar gapda hech qanday sintaktik funksiyani bajarmay masalan, He certainly knows all about it. U albatta buni biladi.

Mustaqil elementlar ba`zan bitta gapni tashkil qilishi ham mumkin. Masalan, Yes. No, Alas

Mustaqil elementlarga E.M Gordon<sup>14</sup> quyidagilarni kiritadi.

1. Modal so`zlar (Modal verbs)
2. His- hayajon so`zlar
3. Tasdiq va inkor so`zlar

Bundan tashqari tilshunos olim E.M Gordon<sup>12</sup> so`zlarni uch asosiy guruhga bo`ladi: mustaqil so`zlar, yordamchi so`zlar, mustaqil elementlar. Ingliz tilida so`zlarni mustaqil va yordamchi so`zlarga ajratish ma`lum bir qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Masalan, fe`l so`z turkumini olib qaraydigan bo`lsak, umuman olganda fe`l mustaqil so`z turkumiga kiradi, lekin ba`zi hollarda fe`l so`z turkumini tashkil qiluvchi modal fe`llarni yordamchi so`z turkumiga kiritish mumkin, Mustaqil fe`llardan “to look” fe`lini olib qaraydigan bo`lsak, uni ham mustaqil ham yordamchi so`z turkumiga kiritish mumkin.

Masalan, He looked at me (U menga qaradi.)

He looked tired. (U charchagan ko`rindi.)

1-gapda “To look” fe`li mustaqil so`z turkumiga kirsa, 2-gapda yordamchi so`z bo`lib kelgan.

---

<sup>14</sup>E.M. Gordon, I.P Krylova “A Grammar of present- DayEnglish” M., 1974

## 1.2 Ravish haqida umumiy ma'lumot va ravishlarning shakliga ko'raturlari

Ish-harakat va holatning belgisini bildirgan so'zlar turkumi ravish deyiladi. Ingliz tilida "adverb" –ravish so'zi lotincha "adverbium" so'zidan olingan bolib "ad"- -ga(to), verbum –so'z, fe'l (word, verb) ma'nolarini anglatadi, -ium – otlik suffiksi hisoblanadi. Ravish qanday?, qachon?, qayerda?, qayerdan?, qayerga?, qancha?, nega?, qay darajada? (how?, when?, where?, in what way?, to what extent?) kabi so'roqlarga javob bo'ladi. Ravish ko'pincha fe'lga bog'lanib, ish-harakatning qay holatda bajarilishini, paytini, o'rnini, daraja- miqdorini, sababini, maqsadini bildiradi.

She sang loudly.

("loudly" ravishi "sang" fe'lining holatini ifodalab kelyapti)

U baland ovozda kuyladi.

We left it here. ("here" ravishi "left" fe'lining o'rnini ifodalab keladi)

Biz uni shu yerda qoldirgan edik.

I worked yesterday. ("yesterday" ravishi "worked" fe'lining paytini ifodalab kelyapti)

Men kecha ishladim.

You often make mistakes. ("often" ravishi "make mistake" fe'lli birikmasining takrorlanishini ifodalab kelyapti)

Siz tez-tez xatoga yo'l qo'yib turasiz.

Ravish nafaqat so'z (ravish) orqali, balki birikmalar yoki ravishli ergash gap shaklida kelishi ham mumkin.

His wife's face flushed **as though in pain.**(HC45)

Og'riqqaqaramasdan uning yuzlarida qizarish paydo bo'ldi.

He walked straight **up the lane.**(HC22) (prepositional phrase)

Ravish faqat fe'lni emas balki ba'zan sifat yoki boshqa bir ravishlarning belgi va xossalarini ham ifodalashi mumkin:

She translates the article quite **well.** U maqolani juda ajoyib tarjima qiladi.

("Quite" ravishi "well" ravishini ifodalab keldi.)

You are **quite** right. Siz mutloq haqsiz.

(“quite” ravishi “right” sifatini aniqlab keldi)

She sang **very** loudly. U juda baland ovozda kuyladi.

(“Very” ravishi “loudly” ravishini ifodalab keldi.)

Lekin ravishlar ba’zan otli brikma, predlogli birikma, butun gap yoki ergash gap shaklida ifodalanishi ham mumkin. Masalan:

I bought **only** the fruit. Men faqat meva sotib oldim

(“Only” ravishi “the fruit” otli birikmasini ifodalab keldi.)

She drove us **almost** to the station.

U bizni deyarli stansiyagacha olib bordi.

(“almost” ravishi “to the station” predlogli birikmasini ifodalab keldi)

**Certainly** we need to act. Albatta biz harakat qilishimiz zarur.

(“certainly” ravishi butun gapni ifodalab keldi)

You are probably right. Siz ehtimol haqsiz.

Biz ravish haqida ma’lumot o’qir ekanmiz, ko’p hollarda “ravish har doim fe’lni aniqlab keladi” degan fikrga duch kelamiz va otga ergashib keladi deb o’rganilmaydi. Lekin ayrim hollarda ravish otga ham ergashib keladi va ular otga bog’lanib, predmetning belgisini bildirishi mumkin:

I have enough time to do this. Buni bajarishga yetarli vaqtim bor.

The people here are friendly. Bu yerdagi aholi do’stona xalq.

The show features dances galore.

There is a shortage internationally of protein for animal feeds.

The farm is four miles **away**. Ferma to’rt mil uzoqlikda.

Ravishlar ba’zan predikativ (ot kesim) bo’lib keladi. Your seat is there.

Ravishlar quyidagi xususiyatlarga ega:

- 1) biror so’z bilan bog’langanda o’z shaklini o’zgartirmaydi, ya’ni so’z o’zgartuvchi qo’shimchalarni olmaydi: tez yurdi.
- 2) o’ziga xos yasalish tizimiga ega: kind-kindly, amazing-amazingly, polite-politly.
- 3) harakat belgisini qisman bo’lsa-da darajalab ko’rsata oladi: tez, tezroq, juda tez.

4) gap tarkibida ko'pincha hol (they greeted friendly--ikkisi do'stlarcha salomlashishdi), ot-kesim (He has much reason for it.-- uning bu borada bahonasi ko'p), ba'zan otga bog'lanib, aniqlovchi (many people gathered -- ko'p odam to'plandi.) bo'lib keladi.

Ravish mustaqil so'zlardan bo'lib, harakat va holatning belgisini, shuningdek belgining belgisini bildiradi. Ravish morfologik jihatdan o'zgarmas bo'lib, ko'pincha fe'llarga bog'lanib keladi. Ravish ayrim hollarda sifat va otga, shuningdek o'ziga ham bog'lanib kelishi mumkin. Masalan:

This happened almost every night in summer and fall of 1952.(JG54)

(otga bog'lanib keldi)

Bu voqea 1952 yilning yozi va kuzida deyarli har oqshom sodir bo'lardi.

He spoke extremely fluently.(ravishga bog'lanib keldi)

U haddan ziyod ravon, tiniq gapirdi.

It is very interesting book. (sifatga bog'lanib keldi)

Bu juda qiziqarli kitob.

Ravishning turlanish va tuslanish xususiyatiga ega emasligi, ko'pincha fe'lga bog'lanib, hol vazfasida kelishi uning asosiy grammatik belgilari hisoblanadi:

I have too many friends in my Pappy's farm.(JG44)

Bobomning fermasida juda ko'p do'stlarim bor.

Maxsus so'z yasovchi affikslarga (-ly, -wise, -ways) va prefix(old qo'shimchalarga (a-, al-("all" so'zidan olingan), n-("not" so'zidan olingan) ega bo'lishi va shakl yasovchi affikslarni olib kelishi ham ravishlarning grammatik belgilariga kiradi.

Belgi bildiruvchi so'z bo'lganligidan ravishlar sifatga yaqin turadi. Ravishlar harakat va belgining belgisini sifat kabi darajalab, boshqalariga chog'ishtirib ko'rsatish xususiyatiga ega:

He went much ealier than me. U mendan ancha ilgariroq ketdi.

Ammo belgi ma'nosini anglatish xususiyati, vazifasi va boshqa-boshqa so'zlarga bog'lanishi jihatidan ravishlar sifatdan farq qiladi. Sifat asosan otga

bog'lanib, predmetga xos turg'un belgini bildiradi va sifatlovchi vazifasida keladi. Ravishlar esa asosan fe'lga bog'lanib, harakatning jarayon bilan bog'liq bo'lgan belgisini anglatadi va hol bo'lib keladi:

Tally chewed **slowly** and looked at me (JG32)

Telli ohista chaynaldi va menga qaradi.

Meeting went well and the directors were extremely happy with the outcomes.

Majlis yaxshi o'tdi va direktorlar mehmonlardan behad minnatdor bo'ldi.

Ravish fe'ldan tashqari otga, sifatga, boshqa bir ravishga ham bog'lanib keladi, butun gapni yoki ergash gapni begilab keladi. Otga bog'lanib kelgan ravishlar gapda sifatlovchi vazifasini bajaradi:

**Certainly** the quality was **very** poor.

Albatta sifat juda yomon ahvolda edi.

I found the film **amazingly** good. Film hayratlanarli darajada yaxshi edi.

**However**, I will not eat fried eggs **again**.

Harqalay men bundan buyon tuxum yemayman

Ammo fe'lga bog'lanib, harakatning belgisini bildirgan sifatlar butunlay ravish turkumiga o'tib ketmagani kabi, otga bog'lanib kelgan ravishlar ham sifat turkumiga o'tib ketmaydi. **Only** members are allowed to enter. Faqat a'zolargagina ichkariga kirishga ruxsat etiladi.

Ingliz tilida ravishlar strukturasi va ma'nosiga ko'ra bir necha gruppalariga bo'linadi. Strukturasi ko'ra ravishlar sodda (Simple adverbs –near, back, now, lateate), yasama (Derivative adverbs –highly, strongly, kindly), qo'shma (Compound adverbs – sometimes, somewhat, downstairs), murakkab (Composite adverbs – by now, at present, at once) ravishlariga bo'linadi.

Sodda ravishlar: here – shu yerda, bu yerga, there – u yerga, o'sha yoqda, now-hozir, endi, almost – qariyib, deyarli, soon – yaqinda, tez orada va boshqalar.

Yasama ravishlarga sifatga –ly qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan ravishlar kiradi: easily – osonlik bilan, quietly – bermalol, slowly – sekin. Ba'zi

ravishlar boshqa soʻz turkumlaridan yasaladi: daily – kunlik, weekly – haftalik, monthly – oylik va boshqalar.

Ayrim ravishlar ikki xil shaklga ega: birinchisi shu shakldagi sifatning shakliga oʻxshaydi, ikkinchisi esa -ly qoʻshimchasi bilan tugaydi. U holda -ly bilan tugagan ravishning maʼnosi sifat bilan bir xil shakldagi ravishdan farq qiladi.

Sifat	Sifat bilan bir xil shakldagi ravish	-ly qoʻshimchasi bilan tugagan ravish
He is a hard worker.	He works hard.	I could hardly understand him.
U tirishqoq ishchi.	U qattiq ishlaydi.	Men uni arang tushundim.
He returned in the late autumn.	I went to bed late last night.	I haven't seen him lately.
U kech kuzda qaytdi	Men kecha kech yotdim.	Men uni keyingi paytlarda koʻrganim yoʻq.
He is studying the history of the Near East.	He lives quite near.	It is nearly five o'clock.
U Yaqin Sharq tarixini oʻrganmoqda	U juda yaqin joyda yashaydi	Soat deyarli besh.

Baʼzi ravishlar feʼllar bilan birga ishlatilib yangi maʼno beradi. Bu ravishlarga quyidagilar kiradi: about, across, along, around, away, back, by, down, in, off, out, over, through, under, up va boshqalar.

Baʼzi hollarda birikmaning maʼnosi shu birikma tarkibiga kirgan soʻzlarning maʼnosidan kelib chiqqan boʻladi: to come back qaytib kelmoq (to come kelmoq, back orqaga)

To go away ketmoq (to go bormoq, away chetga)

To go down pastga tushmoq (to go bormoq, down pastga)

Bohqa hollarda birikmaning maʼnosi uning tarkibidagi soʻzlar maʼnosiga toʻgʻri kelmaydi: to make out tushunmoq (to make qilmoq, out tashqariga)

To put out -- oʻchirmoq (to put qoʻymoq, out tashqarida)

To give in -- yonbermoq, taslim boʻlmoq (to give bermoq, in ichida)

To look after -- g'amxo'rlik qilmoq (look qaramoq, after keyin)

To grow up -- ulg'aymoq, voyaga yetmoq (to grow o'stirmoq,, up yuqoriga)

To bring up -- tarbiyalamoq (to bring olib kelmoq, up yuqoriga)

Bu ravishlarning ko'plarining shakli predloglar bilan mos kelganligi uchun ular predloglar bilan birga o'rganiladi.

Ravish yasovchi asosiy suffiks –ly bo'lib, u asosan sifat negiziga qo'shiladi. Masalan: fondly erkalab; largely –keng, yalpisiga; entirely – butunlay; absolutely – mutlaqo, faqat; actually – aniq, kindly – mehribonlarcha, seriously - jiddiy holda, politely – xushmuomalalik bilan..

Hozirgi zamon ingliz tilida –ward, -wise, -long suffikslari vositasida yasalgan ravishlar ham mavjud. Masalan: seaward –dengiz tomon; shoreword – qirg'oq tomon, forword-olg'a, oldinga, anywise -harqalay, edgewise – yoni bilan, womewise – harqalay, flatwise – chalqanchasiga, headlong – boshi bilan, bosh tomon, sidelong – yoniga va boshqalar.

Sifat narsa yoki shaxsga xos belgi haqida ma'lumot beradi, ot va olmoshni aniqlaydi. Mandy is a careful girl.(girl – ot, she – olmosh)

Ravish esa shaxs yoki narsa bajargan ish-harakat belgisi haqida ma'lumot beradi va fe'l, sifat va ravishni aniqlab keladi. Mandy drives carefully. (drive – fe'l)

Mandy is a careful driver. Mendi ehtiyotkorshafyor.

Bu misolda Mendi va shafyor haqida gap bormoqda. Shu sababli “careful” so'zi sifat so'z turkumi hisoblanadi.

Mandy drives carefully.

Mendi ehtiyotkarlik bilan mashina boshqaradi.

Bu misolda Mendining mashinani boshqarish holati, belgisi haqida gap bormoqda. Shu sababli “carefully” so'zi ravish so'z turkumi hisoblanadi.



### 1.3 Ravishlarning semantik jihatdan turlari

Ravishlar fe'llarga bog'lanib, fe'llar ifodalagan ish – harakatning paytini, vaqtini, o'rnini, sababini, miqdorini, holatini, daraja va miqdorini ko'rsatib keladi. Professor B.L.Kaushanskaya ravishlarni semantik jihatdan 6 ta asosiy guruhlarga va 3 ta yordamchi guruhlarga ajratadi: o'rin-joy ravishlari, payt (vaqt) holat ravishlari, takroriy ravishlar, daraja-miqdor va o'lchov ravishlari, sabab va natija ravishlari. Yordamchi ravishlarga quyidagilar kiradi: interrogative adverbs - so'roq ravishlari, conjunctive adverbs – bog'lochi ravishlari, relative adverbs – ravish ergash gap.

1. O'rin va jo'nalish ravishlari (O'rin-joy ravishlari). Adverbs of Place and Direction.

O'rin ravishlari fe'llar bilan bog'lanib, fe'l ifodalagan ish- harakatning bajarilish o'rnini, joyini ko'rsatib keladi va where?-- qayerda?, qayerdan?, qayerga?, so'roqlariga javob bo'ladi. O'rin-joy ravishlariga quyidagilar kiradi:

Here – bu yerda, bu yerga, shu yerda, shu yoqqa, bu yoqqa

When have you come here? Bu yerga qachon keldingiz?

What are you doing here? Bu yerda nima qilyapsiz?

There – u yerda, o'sha yerda, u joyda, u yoqqa

John is going to stay there several weeks. Jon u yerda bir necha hafta turmoqchi.

Leave it there. Uni o'sha yerda qoldiring.

Will you go there soon. Yaqin orada u yoqqa borasizmi?

Near – yaqin, yaqinida, yonida.

He is standing near his father. U otasi yaqinida turibdi.

Behind – orqada, keying, orqasida.

There is a garden behind our house. Uyimiz orqasida bog' bor.

Within – ichida. You should finish this work within a month.

Siz bu ishni bir oy ichida tugatishingiz kerak.

Outside – tashqarida, sirtida. It is a bit cold outside. Tashqari bir oz sovuq.

Don't judge a man from his outside. Odamning sirtiga qarab baho bermang.

Upstairs – tepada, yuqorida. The bedrooms are upstairs. Yotoqxonalar yuqorida.

Inside – ichkarisida, ichki tomonidai, ichida.

Backward – orqa tomonida, orqaga.

It is not easy to walk backwards. Orqaga yurish oson emas.

Ashore – qirg'oqqa, qirg'oqda.

After swimming for an hour he came ashore. Bir soatcha cho'milgandan keyin u qirg'oqqa keldi.

Round – aylanasiga, arofiga, orqasiga.

Thence (forth) – u tomondan, shu yerdan, o'shandan beri.

Past – yonidan

Hence (forth) -- shu yerdan, endi

Along – boylab, yoqalab.

Thither, heither – o'sha yoqqa, o'sha tomonga

Where – qayerda, qayrga.

Somewhere – qayerdadir, biror yerda, biror joyda.

Downstairs – pastga, past qavatda

Nowhere –hech qayerda, hech qayerga

Back – orqada, orqaga, qaytarib

Everywhere – hamma yoqda, hamma yerda.

Out – tashqariga, tashqaida

Above – ustida, tepasida, yuqorida

In – ichida, ichiga

Below – ostida, pastki

Anywhere–biror joyda, qayerda bo'lmasin

Under – ostida, tagida

whence – qayoqdan, qaysi tomonda

Somewhere ravishi bo'lishli gaplarda ishlatiladi. Masalan:

I left my umbrella somewhere. Men soyabonimni qayerdadir qoldiribman.

Anywhere so'roq va bo'lishsiz gaplarda ishlatiladi:

I can't find my dictionary anywhere. Men lug'at kitobimni hech qayerdan topa olmayapman.

“Nowhere” qisqa javoblarda ishlatiladi:

--Where did you go after supper? --Nowhere.

2. Adverbs of Time. Payt ravishlari.

Payt ravishlari fe'llar bilan bog'lanib, fe'l ifodalagan ish- harakatning bajarilish paytini, ish-harakat bajarilish aniq vaqtini ko'rsatib keladi va, qachon?, qachongacha?, qachondan?, qachondan beri? kabi so'roqlarga javob bo'ladi:

Today – bugun	Often – tez-tez, ko'pincha
Then – so'ng, so'ngra, keyin, u mahalda, o'shanda	Presently – tezda, hoziroq, sal vaqt o'tgach, tez orada
Tomorrow – ertaga	Immediately – darrov, darhol, bevosita
After -- keyin, so'ng, orqasidan	Early – erta, barvaqt
Before – ilgari, oldin, avvali	Late – kech, so'ng, kech qolib
When – -da, vaqtda, paytda	Still – haligacha, hali ham
Now – hozir, endi, shu kundan	Yet – hali; allaqachon
Since – o'shandan beri, -dan buyon	Shortly – tezda, sal oldin, ilgariroq
Ago – avval, ilgari	Tonight – bugun kechqurun (kechasi)
Already – allaqachon	Suddenly – to'satdan, qo'qqisidan, birdan
Always – har doim	
Soon – tezda, yaqinda	
Seldom – kamdan-kam	
Frequently – hozir, tez-tez	Someday – bir kuni
By now – hozirgacha, hozirgi davr	Hitherto – shu vaqtgacha, hozirgacha
Sooner or later – erta(mi) – kech	Ever – biror vaqt.
Lately – yaqinda, keying paytlarda	Never – hech qachon . Usually – odatda
Everyday – har kuni, kunda	Recently – shu kunlarda
Sometimes – ba'zan	

Then the rope gave way and **suddenly** the bridge sagged and swung.(LLMTR51)

So'ngra arqon ko'prikdan yura boshlashdi, to'satdan arqon osilib solqi bo'ldi va tebrana boshladi.

Have you ever seen him. She never has been in London.

We usually spend holiday in mountain. I haven't seen you recently.

**Never** ravishi bilan bo'lishli shakldagi fe'l ishlatiladi, chunki ingliz tilida bitta gapda faqat bitta inkor ishlatilishi mumkin. Ex. I have never been there. Men u yerda hech qachon bo'lmaganman.

**Yet** ravishi so'roq gaplarda allaqachon ma'nosida ishlatiladi. Already ravishi esa allaqachon ma'nosida so'roq gaplardagi biror ish-harakatning bunchalik tez sodir bo'lganligiga ajablanish, hayratlanishni ifodalaydi.

Ex.: .Have you finished your work yet? Ishingni allaqachon tugatdingmi?

### 3. Advers of Manner. Holat ravishlari.

Holat ravishlari fe'l ifodalagan ish-harakat bilan bog'lanib, ish-harakatning qanday holatda yoki qay tarzda bajarilganligini bildiradi va how? -- qanday?, qay holda?, qay tarzda?, so'roqlariga javob bo'ladi. Bu guruhdagi ravishlarning ko'pchiligi sifatga -ly qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi:

Quickly – tez, darrov	Wisely – oqilona, aqlli, donolarcha
He came into the room very quickly. U xonaga juda tez kirib keldi.	Steady – qat'iy, doimo
Strongly – qattiq, juda kuchli	Bravely – mardlarcha, qo'rqmas, mardlarcha
High(ly) – yuqori, baland, qimmat	Quietly – beozorgina, tinchgina,
Well – yaxshi	tinch, sokin
Have you rested well? Yaxshi dam oldingizmi?	Easily – osongina, yengillik bilan
Thus – shunday, shunday qilib, shu tarzda	Fluently – bemalol, ravon, tekis
Together – birga, birgalikda, birgalashib	Lazily – erinib, erinchoqlik bilan
Kindly – iltifot bilan, ko'ngli ochiq, xayrixohlik bilan	Fast – tez, mahkam, qattiq, chidamli
Hard – qattiq, kuchli, og'ir, ko'p	Willingly – tayyorgarlik bilan, ishtaha bilan, xohlab
Beautifully – chiroyli ajoyib	By heart – yoddan
Badly – yomon, zararli	By chance – tasodifan, to'satdan
Slowly – sekin, asta-sekin, sust	So-so – o'rtacha, yomon emas

Batai Khan had rebuked him gently.  
(LLMTR25)

Batay Xon uni muloyim koyidi.

4. Adverbs of Frequency. Takroriy ravishlar. Takroriy vaqtni ko'rsatuvchi takroriy ravishlari ish-harakatning qancha vaqtda takrorlanib bajarilib turishini ko'rsatib keladi va how often? – qancha vaqtda? so'rog'iga javob bo'ladi.

Often – tez-tez, ko'pincha, seldom – kam, siyrak, goh-goh;

Ever – doim, hat doim

Ever they drew closer. (LLMTR 47)

Never – hech qachon

If he lives our mountains will never be free. (LLMTR30)

I hayot ekan bizning tog'larimiz hech qachon ozod, erkin bo'lmaydi.

Sometimes – ba'zan, Rarely – goh-goh, o'xtin-o'xtin, Generally – umuman, odatdagicha, Daily – kunda, har kuni, Occasionally – har zamonda, o'xtin-o'xtin

Occasionally there would be the crack of one of the captured rifles. (LLMTR 47)

Qo'lga kiritgan miltiqlarda har zamon yoriq joy topilar edi.

Frequently – tez-tez bo'lib turadigan, Usually – odatdagicha, har safargidek.

5. Adverbs of Degree, Measure and Quantity. Daraja-miqdor va o'lchov ravishlari.

Daraja – miqdor ravishi ish-harakatning darajasini, miqdorini, belgining darajasini, narsa-buyumning noaniq miqdorini bildirib, qancha?, qay darajada? so'roqlariga javob bo'ladi: Very – juda, g'oyatda, benihoya; Almost – deyarli, aytarli; Enough – yetarli, bo'ldi; scarcely – zo'rg'a, arang; rather – tezror, yaxshiroq, afzalroq, ancha, yetarli; Somewhat – qisman, ma'lum darjada, bir qadar, bir muncha

Too – juda, haddan tashqari, o'ta; Nearly – yonida, taxminan, deyarli, aytarli

So – shunday; Much – juda ko'p; Little – oz, bir oz; Hardly – zo'rg'a, arang,

qiyinchilik bilan; Exactly – rosa, o'z vaqtida; Half – yarim-yorti, chala, Wholly – to'la, batamom, tamomila, butunligicha; Partly – qisman

This statur is made **partly** of iron, **partly** of concrete.

Bu haykal qisman temir, qisman betondan qilongan.

Exceedingly – juda ham, favqulodda

The professor gave him an exceedingly difficult task.

Professor unga juda ham qiyin vazifa topshirdi.

Firstly – birinchidan, avval

I cannot finish this work in time firstly, and secondly it's a very difficult problem.

Birinchidan, bu ishni vaqtida tugata olmayman, ikkinchidan, bu qiyin masala.

Secondly – ikkinchidan, ikkilamchi, keyin

Thirdly -- uchinchidan

Pretty – durust, tuzukkina

Utterly – haddan tashqari o'ta, juda ham nihoyatda

a) **Much** ravishi ko'p ma'nosida asosan so'roq va bo'lishsiz gaplarda ishlatiladi. Darak bo'lishli gaplarda esa odatda much ning o'rniga a lot, a great (good) deal so'zlari keladi:

Has he read much?

He hasn't read much.

He has read a lot( a great deal). U ko'p o'qigan.

Much ravishi darak gaplarda very, rather, too, so, as, how ravishlari bilan birgalikda kelishi mumkin:

He reads very much. U ko'p o'qiydi.

He plays football too much. U juda ko'p futbol o'ynaydi.

b) **Little** ravishi o'z ma'nosida xuddi much kabi darak gaplarda very, rather, too, so, as, how ravishlari bilan birga keladi. Little yuqoridagi ravishlarsiz kelganda odatda uning o'rniga not ... much ishlatiladi:

He doesn't read much. U kam o'qiydi ("He reads little." emas)

She doesn't speak much about it. U bu haqda kam gapiradi.

("She speaks little about it" deyilmaydi)

c) Very – juda; too - juda, ancha, o'ta; so - shunday, how - qanday ravishlari sifat yoki ravishni aniqlab keladi:

He is very clever. U juda aqlli.

You are walking too fast. Juda tez yurayapsiz

He was so glad to see me. U meni ko'rib juda xursand bo'ldi.

How late it is. Buncha kech bo'libdi.

Bu ravishlar o'tgan zamondagi fe'l yoki sifatdoashni aniqlash uchun mustaqil ishlatilmaydi. Ular bilan birgalikda much ravishi ham keladi va o'zbek tiliga tarjima qilinmaydi.

I want to see him so much.

He was very much interested  
what I said.

You know how much I like my work. I was too much surprised to say  
anything.

d) **Hardly, scarcely** ravishlari arang, zo'rg'a ma'nosida ishlatiladi:

I could hardly (scarcely) understand him. Men uni juda oz tushundim. (Men  
uni deyarli tushunmadim)

Hardly, scarcely ravishlari ko'pincha any, anybody, anything, anywhere,  
ever so'zlari bilan birga keladi. Bunda ular o'zbek tiliga bo'lishsiz shaklda  
...yo'q desa ham bo'ladi, deyarli deb tarjima qilinadi:

There were hardly (scarcely) any people in the street. Ko'chada deyarli  
odam yo'q edi.

There was hardly (scarcely) any water in the well. Quduqda suv yo'q desa  
ham bo'ladi.

I hardly (scarcely) ever see him. Men uni deyarli ko'rmayman.

e) **Nearly** va **almost** qariyib, deyarli ravishlari darak gaplarda ishlatiladi.

Nearly va almost ravishlari fe'lga aloqador bo'lib kelganda o'zbek tiliga sal qoldi  
deb ham tarjima qilinadi:

I was nearly (almost) finished my work. Men o'z ishimni deyarli tamomlagan  
edim.

I nearly (almost) made a mistake. Men xato qilishimga sal qoldi.

I nearly (almost) fell. Men yiqilib tushishimga sal qoldi.

Nearly va almost ravishlari bo'lishsiz gaplarda ishlatilmaydi.

6. Adverbs of Cause and Consequence. Sabab va natija ravishlari.

Sabab ravishi ish- harakatning bajarilish sababini bildirib, why? -- nega?,  
nima uchun?, nima sababli? so'rog'iga javob bo'ladi:

Therefore – shuning uchun

It was raining the whole day yesterday, therefore we stayed indoors.

Kecha kun bo'yi yomg'ir yog'di, shuning uchun biz uyda o'tirdik.

Consequently – demak, binobarin, haqiqatda

## 1.4 Ravish darajalari

Ko'pgina ravishlarning, ayniqsa holat ravishlarining darajalari sifatlarning darajalariga o'xshaydi. Ravishlarda xuddi sifatlardagidek 3 ta asosiy va bitta yordamchi daraja mavjud. Ravishlarning bir qismi oddiy (Positive degree), qiyosiy (Comperatve degree), orttirma daraja (Superlative degree) formalariga ega. Yordamchi daraja esa teng daraja (Equal degree). Ravish darajalari morfologik, sintaktik (more, most so'zlari yordamida) va suppletiv usul vositasida yasaladi. Suppletiv usul turli o'zakkdagi ravishlar paradigmasidan tashkil topgan bo'ladi.

Ravish darajalarining sifat darajalaridan farqi shundaki, sifat darajalarida narsa predmetning belgisi tahlil qilinadi. Ravish darajalarida sa ish-harakatning belgisi tahlil qilinadi. Ravishlarga daraja qo'shimchalari xuddi sifatlardagi kabi qo'shiladi.

Ravish darajalarining morfologik usuli. Ravish darajalari morfologik usulda yasalganda so'zning oxirida ma'lum morfologik o'zgarish ro'y berishi mumkin. Ko'pgina ravishlarning, ayniqsa holat ravishlarining darajalari sifatlarning darajalariga o'xshaydi. Bir, ikki bo'g'inli sodda ravishlarning qiyosiy darajasi morfologik usulda, ya'ni –er qo'shimchasini qo'shish bilan, orttirma darajasi esa -est qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi:

Positive degree.	Comperative degree.	Superlative
Oddiy daraja.	Qiyosiy daraja	Orttirma daraja
hard – qattiq	harder-qattiqroq	hardest-eng qattiq
fast – tez	faster-tezroq	fastest-juda tez
early – erta	earlier-ertaroq	earliest-juda erta
late -- kech	later-kechroq	latest-eng kech
soon – tezda	sooner -- tezroq	soonest -- eng tez

He tried hard to win the game. U bu o'yinni yutishga qattiq harakat qildi.

The car is running fast. Mashina tez ketayapti.

It is early to congratulate me. Meni tabriklashga hali erta.

Never come late to the party. O'tirishga hech qachon kech qolib kelmang.



This time he pulled harder but couldn't get the fish.

Bu safar u to'ni qattiqroq tortdi, lekin baliqni ola olmadi.

Horses run faster than asses. Otlar eshaklarga qaraganda tezroq yuguradi.

You should get up earlier if you want a fish. Baliq kerak bo'lsa ertaroq turishingiz lozim.

Later you will find her at home. Kechroq uni uyidan topasiz.

This is the hardest nut. Bu eng qattiq yong'oq.

This is the fastest runner. Bu eng chopqir odam.

Tom is the earliest riser among us. Tom ichimizdagi eng barvaqt turadigan odam.

There is the latest news. Bu eng oxirgi xabar.

Ravish darajalarining sintaktik usuli.

Sifatga -ly qo'shimchasi qo'shib yasalgan ravishlarning qiyosiy darajasi uning oldiga more, orttirma darajasi esa oldiga most qo'yish bilan yasaladi:

Positive degree.	Comparative degree.	Superlative degree
Oddiy daraja	Qiyosiy daraja	Orttirma daraja
Heartily-yurakdan	more heartily-sidqidilroq sidqidil	most heartily-eng, juda
Exactly-rosa, o'z vaqtida to'g'risi	more exactly-to'g'riroq	most exactly-(juda)eng
Fluently-ravon	more fluently-ravonroq	most fluently-juda ravon
Clearly – aniq	more clearly – aniqroq	most clearly – eng aniq
Bravely – jasurona jasurona	more bravely – jasurroq	most bravely – eng
Correctly – to'g'ri	more correctly – to'g'riroq	most clearly – eng to'g'ri

Often tez-tez, quickly tez, slowly sekin ravishlarining darajalari har ikkala yo'l bilan yasaladi:

Oddiy daraja	Qiyosiy daraja	Orttirma daraja
Often	oftener more often	oftenest most often

quickly	quicker	quickest
	more quick	most quickly
slowly	slower	slowest
	more slow	most slowly

Ravish darajalarining suppletiv usuli. Irregular adverbs. Noto'g'ri (nostandart) ravishlar.

Ayrim ravishlar borki, ularning darajalari ular yasalgan sifatlarga o'xshab qoidaga bo'ysunmasdan yasaladi. Oddiy darajadagi ravishlarning qiyosiy va orttirma darajalarini yasashda hech qanday daraja qo'shimchalarini olmasdan ularning o'zaklarida o'zgarish bo'ladi. Shu sababli ular notog'ri ravishlar deb ataladi. Noto'g'ri ravishlarga qatoriga quyidagi ravishlar kiritish mumkin:

Positive degree	Comparative degree	Superlative degree
Oddiy daraja	Qiyosiy daraja	Orttirma daraja
Well – yaxshi	better – yaxshiroq	best – eng yaxshi
Badly – yomon	worse – yomonroq	worst – eng yomon
Much –(juda) ko'p	more – ko'proq	most – eng ko'p, eng kata
Little – oz, biro z	less – ozroq	least – eng oz
Far – narida, uzoqda	further – nariroqda	furthest – eng narida, eng uzoqda

Orttirma darajadagi ravishdan keyin **of** predlogli birikma kelganda (yoki nazarda tutilganda) ravish the artikli bilan ham, artiklsiz ham ishlatilishi mumkin. **Of** predlogli birikma bo'lmasa, yoki (nazarda tutilmasa) orttirma darajadagi ravish artiklsiz ishlatiladi:

Which of the boys works (the) best (of all the boys)?

Bolalarning qaysi biri hamma (bolalar)dan yaxshi ishlaydi?

I work best in the morning. Men ertalab yxshi ishlayman.

Rahim came late, Olim came later and Karim came (the) latest (of all).

Rahim kech keldi, Olim kechroq keldi, Karim esa hammadan kech keldi.

## II BOB Ravish so'z turkumi va ravish so'z turkumiga oid muammolar

### 2.1 Ravishlarning gapdagi o'rni va qo'llanilish tartibi

Ravishlar gapda qo'llanish o'rniga ko'ra 3 ga bo'linadi:

1. Front position – gap boshida
2. Mid position – Gap o'rtasida
3. End position – gap oxirida

Ravishlar fe'ldan oldin yoki keyin kelishi ham mumkin. Gap o'rtasida qo'llanuvchi ravishlar asosan yordamchi va modal fe'llardan keyin ishlatiladi.

Am, is, are

Was, were

Have, has

Don't, doesn't, didn't

+ adverbs

Will, can, may,

Must, should,

Could, might,

Would

Masalan: I could barely see his old straw hat in the distance as he moved between rows. (JG27) Uning somon shlyapada qatorlar orasida yurib borayotganini olisdan zo'rg'a ko'rdim.

They would never ask for food from our garden.(JG30)

Ular hech qachon bog'imizdan yeyish uchun biron narsa so'rashmagan.

I am always at home in the evening. Men kechqurunlari har doim uyda bo'laman.

I have just seen Nick. Men hozirgina Nikni ko'rdim.

I don't have usually breakfast. Men odatda nonushta qilmayman.

Jack will probably come today. Jek ehtimol bugun kelar.

Gap o'rtasida qo'llanuvchi ravishlar mustaqil fe'llardan oldin ishlatiladi.

Masalan:

I **usually** go to work on foot. Men ba'zan ishga piyoda boraman.

You **always** come to work late. Siz har doim ishga kech kelasiz.

We **sometimes** meet our friends. Biz ba'zan do'stlarimiz bilan uchrashib turamiz.

Harakattarzi (Adverbs of Manner) ravishlari ikkiga bo'linadi: -ly qo'shimchasi bilan tugamaydigan va –ly qo'shimchasi bilan tugaydigan ravishlar.

a) –ly qo'shimchasi bilan tugamaydigan harakat tarsi ravishlari doimo gap oxirida ishlatiladi. My Pappy drives a truck fast. (JG34) Bobom har doim yuk mashinasini tez haydaydi.

b) –ly qo'shimchasi bilan tugaydigan harakat tarsi ravishlar gap o'rtasida ham, gap oxirida ham ishlatilishi mumkin.

Gillian eyed him, then smiled **wryly**. (KH66)

Gillian unga qaradi, so'ngra istehzoli jilmaydi.

She nodded **seriously**. (KH70) U jiddiy holda bosh iring'adi.

My mother took the towel and **gently** rubbed her neck with it. (JG29)

Onam sochiqni oldi va ohista yelkasini artdi.

Ravishlarning gapdagi o'rni fe'lning o'timli yoki o'timsizligiga ham bog'liq.

1. Gapdagi fe'l o'timsiz bo'lsa, ravish fe'ldan keyin keladi:

He walked **slowly**.

The sun shines **brightly**.

2. Gapdagi fe'l o'timli bo'lsa, ravish fe'ldan oldin yoki keyin kelishi mumkin. U

fe'l bilan to'ldiruvchining o'rtasida kelishi mumkin emas:

He answered the question **calmly**.

He **calmly** answered the question.

He translated the article **easily**.

He **easily** translated the article.

Fe'ldan keyin infinitiv kelganda, ravish fe'ldan oldin ishlatiladi:

He flatly refused to answer the question.

3. Noaniq zamon ravishlari – always, often, seldom, ever, never, just, already, yet, usually, generally, sometimes, still, soon, once va boshqalar fe'ldan oldin ishlatiladi:

He always comes early.

He often goes there.

I usually get up at seven o'clock.'

I once went there with my brother.

Lekin yuqoridagi ravishlar **to be** fe'ldan keyin ishlatiladi:

He is **never** late for the lectures.

He is **always** here at five o'clock.

Gapda qo'shma fe'l ishlatilgan bo'lsa, yuqoridagi ravishlar yordamchi fe'l bilan asosiy fe'l o'rtasida keladi:

I shall **never** forget it.

He has **just** left.

Agar gapda ikkita yordamchi fe'l bo'lsa ravish birinchi yordamchi fe'ldan keyin ishlatiladi:

He has **just** been asked to take part in that work.

Undan hozirgina bu ishda ishtirok etishni so'rashdi.

Noaniq zamon ravishlari modal fe'l bilan infinitive o'rtasida keladi:

You must **never** get off the tram when it is moving.

I can **always** prove it to be true. Men buning to'g'ri ekanligini har doim isbotlab bera olaman.

Agar fe'l **have+to+V** shaklida ifodalangan bo'lsa, yuqoridagi ravishlar **have** dan oldin ishlatiladi: I **often** have to go there.

Agar fe'l **used+to+V** shaklida ifodalangan bo'lsa, yuqoridagi ravishlar **used**dan oldin ishlatiladi: You **always** used to agree. Siz har doim men bilan kelishar edingiz.

**Yet** ravishi hali ma'nosida **not** yuklamasidan keyin yoki fe'ldan keyin, agar to'ldiruvchi bo'lsa, to'ldiruvchidan keyin ishlatiladi:

I have not **yet** read the letter .

I have not read the letter yet.

**Yet** ravishi **allaqachon** ma'nosida gapning oxirida keladi:

Have you read the newspaper yet?

Siz allaqachon gazetani o'qidingizmi?

**Sometimes** ravishi gapning boshida, oxirida yoki fe'ldan oldin keladi:

I **sometimes** go there.

**Sometimes** I go there.

I go there **sometimes**.

**Tomorrow, today, yesterday** ravishlari gapning boshida yoki oxirida keladi:

Tomorrow I shal go there.

I have seen him today.

**Before** oldin, ilgari, **lately** yaqinda, keying paytlarda, **recently** yaqinda, so'ngi kunlarda ravishlari odatda gapning oxirida ishlatiladi:

I have seen this film **before**.

I have not been there **lately**.

Agar gap oxirida o'rin ravishi bilan payt ravishi kelsa, o'rin ravishi payt ravishidan oldin keladi:

I met him **there yesterday**.

Quyidagi noqat'iy payt ravishlari asosan gapning boshida va oxirida ishlatiladi.

Every day, every week, every month, every year, every Sunday, every morning.

Once

Twice

Three times                      a day/ week/ month / year

Four times

Five times

Most days, most weeks, most months, most mornings va b.q.

Every day I go to work.

I go to work every day.

Sifatlarni va boshqa ravishlarni aniqlovchi ravishlar o'zlari aniqlaydigan so'zdan oldin keladi:

I am very glad to see you.

Enough yetarli ravishi o'zi aniqlaydigan sifat, ravish yoki feldan keyin keladi:

You know English well **enough** to read this book.

Izoh: **Enough** sifat bo'lib kelib, otni ham aniqlashi mumkin, bunda enough otdan oldin keladi, ba'zan otdan keyin ham keladi:

Don't hurry, we have enough time (=time enough).

Shoshilmang, bizning yetarli vaqtimiz bor.

**Too, either** ham, shuningdek ravishlari gapning oxirida keladi:

I shall be there too.

I have not seen him either.

**Too** juda ma'nosida kelganda, u o'zi aniqlaydigan so'zdan oldin keladi:

There are too many mistakes in your dictation.

Ingliz tilida aniqlovchi ravish bilan ifodalanib, ravishlar aniqlanmishdan hamoldin, ham keyin kela oladi. Rus tilida ravish aniqlanmishdan oldin aniqlovchi bo'lib kelolmaydi. O'zbek tilida esa ravish bilan ifodalangan aniqlovchi aniqlanmishdan oldin keladi.

a) ravish bilan ifodalangan aniqlovchining aniqlovchidan oldin kelishi:

In the light of after events one can not but sympathize with them. (Fox)

b) ravish bilan ifodalangan aniqlovchining aniqlovchidan keyin kelishi:

A voice **inside** said, "Come in."

The room **above** is large and light.

The man **there** is my brother.

Will it be a step **on** or step **back**?

**Butun bir gapni ifodalaydigan ravishlar.** Yuqorida aytib o'tganimizdek, ravishlar fe'llarga, ba'zan ot, sifat va ravishlarga birikib, ularni ifodalab keladi. Lekin bulardan tashqari shunday ravishlar ham mavjudki, ular butun bir gapni ifodalab keladi. Bunday ravishlar gapning nima haqida ketayotganini ifodalaydi. Ular gap boshida ham, gap o'rtasida ham, gap oxirida ham ishlatilishi mumkin. Lekin ular eng ko'p hollarda gap boshida ishlatiladi. Ular gap boshida ishlatilsa ulardan keyin vergul qo'yiladi, gap oxirida ishlatilsa ulardan oldin vergul qo'yiladi. Masalan: Probably, I will see him today. Ehtimol uni bugun ko'rarman.

I will probably see him today. Ehtimol uni bugun ko'rarman.

I will see him today, probably. Ehtimol uni bugun ko'rarman.

Butun bir gapni ifodalaydigan ravishlar quyidagilar: probably, certainly, clearly, perhaps, luckily, of course, maybe, fortunately, unfortunately, possibly va boshqalar.

Probably va certainly kabi gap ravishlari bo'lishli darak gaplarda yordamchi va modal fe'llardan oldin ishlatiladi. I will probably go to you tomorrow.

I can certainly speak English. Men albatta inglizcha gapira olaman.

Bo'lishsiz gaplarda probably va certainly bo'lishsiz yordamchi va modal fe'llardan oldin ishlatiladi.

I probably will not go to you tomorrow. Ehtimol ertaga siznikiga bormasman.

I certainly can't speak English. Albatta inglizcha gapira olmayman.

Bir gapda bir vaqtning o'zida bir necha ravishlar qatnashishi mumkin. Agar harakat tarsi ravishi, o'rin-joy ravishi va payt ravishi bir gapda qatnashsa ularning joylashuv tartibi quyidagicha bo'ladi:

1. Harakat tarzi ravishlari
2. O'rin-joy ravishlari
3. Payt ravishlari

The baby slept quietly in his cot all night long.

Bolakay tun bo'yi belanchakda tinchgina uxladi.

Agar gapda go, come, leave va shu kabi yo'nalish fe'llari ishlatilsa harakat tarzi ravishlari va o'rin-joy ravishlari gapda o'zaro o'rin almashishlari mumkin.

He left home suddenly after dinner.

Go, come, travel, get, reach, approach kabi yo'nalish fe'llaridan keyin har doim birinchi o'rin-joy, keyin payt ravishlari keladi. He went to New York last week.

Bundan tashqari quyidagi ravishlar ham butun bir gapni ifodalovchi ravishlar hisoblanadi va ular quyidagicha ishlatiladi:

1) Kishining fikrini ifodalovchi ravishlar

a. kishining ishonchi komilligini ifodalash uchun:



Clearly, definitely, honestly, naturally, obviously, particularly, really, strictly speaking.

b. fikrni qisqa, lo'nda ifodalash uchun:

briefly, in brief, anyhow, in effect, in a few words, in short.

c. kishining o'z fikrini bildirishini ifodalaydi. I think, in my opinion, as far as, frankly, I am concerned.

2) Fikrlarni bir-biriga bog'lovchi ravishlar:

a. gapga kishi o'z fikrini qo'shishni, o'z fikrini bildirishni ifodalaydi:

in addition, again, apart from this, besides, moreover.

b. fikrlarni qiyoslashni, taqqoslashni bildiradi:

as compared to, equally, however, in reality.

c. xulosa qilishni ifodalaydi:

all in all, and so on, essentially, in brief, in conclusion, in effect, finally.

You are finally learning to be tactful.

She actually grew up with kids who were too good to pick cotton. (J.G.A.P.H. 24)

U haqiqatdan ham paxtani juda zo'r teradigan bolalar orasida katta bo'lgan.

## **2.2 Ravish so'z turkumi yasalishi va ravish so'z turkumiga oid muammolar**

Oldingi boblarda aytib o'tganimizdek, ish-harakat va holatning belgisini bildirgan so'zlar turkumi ravish deyiladi. Lekin bu ta'rif ravishlarga xos barcha xususiyatlarni ochib bera olmaydi va natijada bir qancha muammolarga duch kelamiz. Muommolar haqida professor B.L.Muxin ham to'xtalib o'tgan<sup>15</sup>: "We will accept that definition, we have not included under adverbs words expressing the speaker's view of the action spoken of in the, and have classed them under modal words. Among the adverbs there are some which admit of degrees of comparison, and others which do not." Ravishlar ba'zan belgining darajasini, ba'zan ish-harakatga xos belgini, ba'zan qanday sharoitda yoki qachon sodir bo'lishini ifodalaydi. Shu sababli gapda kelgan predlog, ravish va sifatlarni bir-

---

<sup>15</sup>B.L.Muxin: "The structure of English" p.146

biridan farqlash, ravishga o'ziga xos alohida ta'rifni berish bir oz qiyinchilik tug'diradi. Bundan tashqari ayrim ravishlarda daraja mavjud, ayrimlarida esa mavjud emas. Ayrim ravishlar ifodalab kelgan ma'no ish-harakatga umuman aloqador emas, ularni modal so'zlar deb atash mumkin. Bu so'zlar qatoriga quyidagi so'zlarni aytish mumkinki, ularda raishga xos belgi mavjud emas: perhaps, maybe, certainly, possibly, indeed, va b.q. Ravishlar sifatlar kabi otlar oldidan kelishi mumkin, hatto predloglar oldidan ham keladi va qisman otlashadi. Bu holatni quyidagi frazada ko'rish mumkin: from here, from there, since when, up to now.

Bundan tashqari ravish darajalari faqat ba'zi ravishlarda mavjudligi va ayrim ravishlarning ba'zi fe'llarga birikishi natijasida yangi ma'no hosil bo'lishi, ya'ni fe'lli fraza hosil bo'lishi asosiy muammolardir. Masalan: "to bring up" birikmasi "tarbiyalamoq, voyaga yetqazmoq" deb tarjia qilinadi. Birikmani alohida tarjima qilsak "To bring" olib kelmoq, "up" yuqorida, yuqori" ma'nolarini ifodalaydi. Ikkala sozni biriktirganda butunlay yangi so'z hosil bo'ladi, ya'ni ikkala so'z ham asl ma'nosini yo'qotadi. Bu holatga turli olimlar turlicha fikr bildirishgan. "To bring up" ni ba'zi olimlar fe'lli fraza deb qarashsa, ba'zi olimlar esa ularga so'z sifatida qarashadi. Ikkinchi qismini qaysi so'z turkumiga kiritish mumkin, degan savol tug'iladi. Professor H.Palmer<sup>16</sup> ularni "Preposition-like adverbs", ya'ni predlogga o'xshash ravishlar, deb ataydi yoki ularni alohida tash kerak deyishadi. Professor A.Smirnidskiy ham ushbu fikrga qo'shiladi. Professor I.Anichkov fikricha, ular ravishlarning alohida shakli bo'lib, ularni "adverbial postpositions" deb ataydi. Professor N.Amasova esa ularni so'zlarning maxsus shakli hisoblaydi va "postpositives" deb nomlaydi.

Ravish so'z turkumining yasalishi borasida, sifatga o'xshash va farqli jihatlarini ajratish biro z qiyin bo'lgan jihatlarini misollar yordamida ko'rib chiqamiz va imkon qadar muammolarni o'rganib chiqishga harakat qilamiz. Sifat va ravishni farqlashning asosiy usuli bu savol qo'yishdir.

---

<sup>16</sup>H.E.Palmer "A Grammar of Spoken English", 1930, p.179

Ravishlar sifatlarga –ly ravish yasovchi qo’shimchasini qo’shish bilan yasaladi: serious – seriously, calm – calmly.

-le qo’shimchasi bilan tugagan sifatlarga –y qo’shiladi va –e tushib qoladi:

gentle – gently, comfortable – comfortably,

probable – probably, sensible – sensibly,

reasonable – reasonably, terrible – terribly.

-y unlisi bilan tugagan sifatlarga –ily qo’shiladi, -y unlisi –i ga almashadi.

happy – happily, easy – easily,

angry – angrily, lucky – luckily.

Lekin: shy -- shyly

-l harfi bilan tugagan sifatlarga –ly qo’shimchasi qo’shiladi.

Awful – awfully

-ie qo’shimchasi bilan tugagan sifatlarga -ally qo’shimchasi qo’shiladi.

dramatic – dramatically, scientific – scientifically

automatic – automatically.

Lekin: public – publicly.

-e harfi bilan tugagan sifatlarga –ly qo’shiladi va –e harfi tushib qolmaydi. Polite – politely, nice – nicely.

Lekin: true – truly, whole – wholly.

Adjective (what kind of ...?)

Jack is patient person.

Adjective +noun

Jek sabrli kishi.

1) Polite – xushmuomala

(What kind of person is Jek?)

Jack is a polite man.

4) calm – og’ir, bosiq, vazmin.

Jek xushmuomala kishi.

Jack is a calm man. Jek vazmin kishi.

(What kind of man is Jack?)

(What kind of man is Jek?)

5) quick – chaqqon

2) Careful-ehtiyotkor

Nick is a quick player.

Jack is careful driver

Nick chaqqon o’yinchi.

Jek ehtiyotkor shafyor

6) warm – iliq, samimiy

3) patient – sabr-toqatli, sabrli

We received warm congratulations.

Biz samimiy tabriklar oldik.  
7) The man had a quiet voice.  
7) Claire wears expensive clothes.  
8) The runners made a slow start.

Adverb (how?)

(Verb+adverb)

1) Politely – xushmuomalalik bilan  
Jack asked permission politely.

Jek xushmuomalalik bilan ruxsat  
so'radi.

(How did Jack ask permission?)

2) Carefully – ehtiyotkorlik bilan  
Jack drives a car carefully.

(How does Jek drive a car?)

3) patiently – sabr toqat bilan

Ingliz tilida ayrim sifatlar borki, ular ravishlar kabi -ly qo'shimchasi bilan tugaydi, lekin ular sifat bo'lganligi uchun har doim otlar bilan birikib keladi va hech qachon fe'llar bilan birga ishlatila olmaydi.

1) Lovely – sevimli, ajoyib  
We have a lovely house.

Bizning ajoyib uyimiz bor

2) lonely – yolg'iz, yakka

I see a lonely tree.

Men yakka daraxtni ko'rayapman

3) lively – harakatchan, sho'x, jonli

My son is lively boy.

O'g'lim sho'x bola.

I had a lively conversation with Tom  
Hanks.

Jack waited for Nick patiently.

Jek Nikni sabr bilan kutdi.

(How did Jack wait Nick?)

4) calmly – vazminlik, bosiqlik bilan  
Jack explained calmly.

Jek vazminlik bilan tushuntirdi.

5) quickly – chaqqonlik bilan

The goalkeeper caught the ball  
quickly.

6) Warmly – samimiylik bilan  
Jack greeted us warmly.

Jek bizni samimiylik bilan qarshi oldi.

7) The man spoke quietly

8) Claire dresses expensively.

9) They started the race slowly.

4) ugly – xunuk

Jack is married to an ugly woman.

5) silly – ahmoq, ahmoqona

I made a silly mistake.

Men ahmoqona xato qilib qo'ydim.

6) elderly – keksa

I have an elderly mother.

Mening keksa onam bor.

7) friendly – samimiy, do'stona

Jack is a friendly person.

Jek samimiy kishi

8) unfriendly – nosamimiy, ichi qora

She is unfriendly person.

U nosamimiy odam.

9) motherly – onalarcha

She couldn't control her motherly feelings.

U onalik his-tuyg'ularini jilovlay olmadi.

10) cowardly – qo'rqqoq

He is a cowardly boy.

U qo'rqqoq bola.

11) early –erta

We must take an early train to get there on time.

Ba'zi so'zlar sifat ma'nosida ham, ravish ma'nosida ham bir xil ko'rinishga ega. Ya'ni bunday so'zlar ravish sifatida qo'llanganda ular –ly qo'shimchasi qo'shilmaydi. Ularni bir-biridan mazmuni va aniqlab kelayotgan so'zga qarab farqlash mumkin. Ko'rinishi jihatdan bir xil sifat va ravishlarga quyidagilarni aytib o'tish mumkin: close, daily, early, far, fast, fair, free, hard, high, late, like, live, long, low, right, wide, wrong va boshqalar. Biz ularning ayrimlarini misollar orqali ko'rib chiqamiz. **Even** camels need to drink.(adverb)

**Even** numbers are divisible by two.(adjective)

Adjective (Sifat)

1) deep – chuqur

The Baykal is a deep lake.

2) Early – erta

He got up early in the morning.

3) Fast – tez

Jack bought a fast car.

4) hard – qattiq, og'ir

Jack had a hard life.

5) High – yuqori, baland

He bought the car at a high price.

6) late – kech

We went there in late autumn.

7) Long – uzun, uzoq

The Nile is a long river.

8) low – past

There are low houses in our village.

Qishlog'imizda past uylar ko'p.

9) right – to'g'ri

You have a right answer.

To'g'ri javob berdingiz

10) Wrong – noto'g'ri

You have a wrong answer.

Javobingiz noto'g'ri

11) Straight – to'g'ri, tekis

Sarah has straight hair.		7) long – uzun
Saraning sochlari tekis.		I waited Jack long.
12) Free – bepul, tekin		Men Jekni uzoq kutdim.
I have a free ticket.		8) low - past
Adverb (Ravish)		The plane flew low.
1) deep – chuqur, obdon		Samolyot past uchdi.
I thought deep about it.		9) right – to'g'ri
They dug deep into the ground.		You answered the question
2) early – erta	right	
I came home early.		10) wrong – not'g'ri
3) fast – tez		You answered wrong.
Jack is driving the car fast.		Siz noto'g'ri javob berdingiz.
4) hard – qattiq, astoydil		11) straight – to'g'ri
He works hard to buy a car.		You must go straight.
5)high – baland, yuqori		To'g'riga yurishingiz kerak
The plane is flying high.		12) free - bepul
6) near – yaqin		I entered the concert free
He came near.		

### 2.3 Ravishning sintaktik-semantik tahlili

BMI ning mavzusining asosiy vazifalaridan biri ravish so'z turkumining gap strukturasidagi ishtirok qaysi paradigmatika (lotinch "paragma- example) ga ya'ni sintaktik-semantik ma'no jihatdan o'xshashligi asosida qaysi paradigmatic guruhga tegishli ekanligini mazkur bobda ko'rib chiqamiz.

Ravish so'z turkumining sintaktik-semantik tahlili gapda transformatsiya orqali aniqlanadi. Transformatsiya – asosan savol qo'yish yo'li bilan, predlogni predlog bilan almashtirish yo'li bilan, biror so'zni tushurib qoldirish orqali transformatsiya qilinadi. Transformatsiya qilinganda lingvistik eksperimentdan foydalaniladi va buning yordamida o'rganilayotgan elementlarning sintaktik-semantik mazmuni aniqlanadi.

Bu nazariya asoschisi professor A.M. Muxin bo'lib, uning izdoshlari Sh.Safarov, R.Qiyomov, S.Egamberdiyevlar bu sohada muvaffaqiyatli va samarali izlanishlar olib bordilar. Predlogli birikmalar G.P, S Egamberdiyev "under +s", Glazacheva "at" predlogli birikmalar bo'yicha komponent va sintaksem tahlil nazariyasida muvaffaqiyatli ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan. Bu ishda biz S.Egamberdiyev, A.M Muxin va boshqa bir qancha mualliflarning ilmiy tadqiqot ishlaridan ijodiy foydalandik.

Tilshunoslikda morfologiyaning birligi esa morfema, fonetikaning birligi fonema bo'lgani kabi komponent va sintaksem nazariyadan kelib chiqqan holda sintaksisning birligi sintaksemadir.

Sintaksema – bu eng kichik ma'noli, bo'linmaydigan birlik bo'lib, u o'zida ma'lum bir til birligining sintaktik – semantikasini mujassamlashtiradi. Prof. A.M.Muhin nazariyasiga asosan sintaksemalar asosiy uchta kategorial guruhga bo'linadi. Ular quyidagilar:

1. Substansial sintaksema – bu sintaksema o'zida predmetik xususiyatini aks ettiradi.
2. Prosessual sintaksema – bu o'zida ish – harakatni aks ettiradi.
3. Kvalifikativ sintaksema – o'zida belgini aks ettiradi.

Sintaksemalarning gapda u yoki bu komponent pozitsiyada (o'rnida) kelishi, komponentlar va sintaksemalar o'rtasidagi yaqin bog'liqlikni analiz qilishga majbur etadi. Mazkur bitiruv ishning ob'ekti bo'lgan ravishlarning asosini kvalifikativ (belgi) sintaksema tashkil etadi. Demak, biz o'rganayotgan ravish va ravishli birikmalarining barchasini umumiy kvalifikativ (belgi) belgi ostida birlashadi va bir – biridan lokotiv, temporal, kauzali, kvantativ, kvalifikativ, ob'ekt kabi belgilar bilan farq qiladi.

Mazkur ishga asos bo'lgan tushuncha va termenlar asosan professor A.M.Muxin<sup>17</sup> tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uning izdoshlari tomonidan muvaffaqiyatli tarzda qo'llanib kelinib, yetarlicha izlanishlar olib borishmoqda. A.M Muxin ijodining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u tilshunoslik terminlarini ishlatishda barcha tillarni bilishi uchun, ularning lotin tilidagi nomlarini saqlab qolganlar (lokativ, substansial, subordinativ, predikativ, kauzal, allativ, temporal, kvalifikativ, kvantativ kabi).

Tilshunos olim A.M.Muxin nazariyasiga binoan ravish so'z turkumini badiiy asarlardan olingan misollarimiz asosida sintaktik-semantikasini o'rganib chiqamiz. Ravish so'z turkumida u yoki bu sintaksemaning mavjud ekanligini aniqlash uchun quyidagi lingvistik eksperiment metodlaridan foydalaniladi:

- 1) Tushirib qoldirish transformatsiyasi
- 2) Almashtirish semantikasi transformatsiyasi
- 3) So'roq gap transformatsiyasi
- 4) Verballashtirish transformatsiyasi

Biz izlanish olib borayotgan ravish so'z turkumi asosiy (yadro) komponentlarini ifodalash umumiy holatda kvalifikativ sintaktik –semantik belgiga xos ekanligini ko'rsatadi va nokategorial sintaksemanl sifatida lokativ, temporal, kvalifikativ, kvontativkauzal, ob`ektiv sintaksemanlarni ifodalab kelishi mumkin.

Quyida biz ravishning lokativ sintaktik-semantikasini uning fe'l bilan, ot bilan, ravish bilan birikib kelishida, ergash gap tarkibida kelishida ko'rib chiqamiz.

Ravish so'z turkumi predlogli, fe'lli, otli, sifatli birikmalar tarkibida kelib, lokativ (o'rin-joy) sintaksemani ifodalashini o'zida musassamlashtiradi. Ravishli birikmalarning lokativ sintaksemani ifodalashini gapni where? yordamida so'roq gapga aylantirish eksperiment metodi va ravishli birikmani there o'rin holi bilan almashtirish orqali isbotlash mumkin.

---

<sup>17</sup> А.М.Мухин “Подляжи и предлоги в кн категория подежа в структуре и система языка (материали научной конференци) 1971



1) One bait was down forty fathoms.(EH22)

Xo'raklardan biri qirq sarjin pastlikda edi.

→ Where was one bait?

→ One bait was there.

2) He looked down into the water.(EH25)

U suv ichiga chuqurlikka qaradi

Where did he look?

He looked there.

3) I know where I can get four baits too. (EH9)

To'rt dona xo'rakni qayerdan topib kelishni ham bilaman.

→I know where.

→I know there.

4) My mother and grandmother sat in padded wooden chairs not far away, on the other side of the porch, shelling peas. (J.G.A.P.H. 36)

Where did my mother and grandmother sit?

My mother and grandmother sat there.

5) I was in the middle, on the front steps. (J.G.A.P.H. 37)

Where was I

I was there.

6) We saw a group of Mexicans working in the field near the road.(JGAPH23)

Where did you see a group of Mexicans?

7) They all ran outside and jumped onto their horses.(JGAPH 31)

Where did they all run?

They all ran there.

Ravish so'z turkumi predlogli, fe'lli birikmalar tarkibida kelib, temporal (payt) sintaksemani ifodalashini o'zida musassamlashtiradi. Ravishli birikmalarning temporal sintaksemani ifodalashini gapni when? yordamida so'roq gapga aylantirish eksperiment metodi va ravishli birikmani then o'rin holi bilan almashtirish orqali isbotlash mumkin.

1) We caught big ones every day for three weeks.(EH7)

Biz ketma-ket uch hafta kuniga (har kuni) bittadan katta-katta baliq tutganmiz.

→When did you catch big ones?

→We caught big ones then for three weeks.

2) How old was I when you first took me in a boat? (EH7)

Meni birinchi marta dengizga olib chiqqaningizda men necha yoshda edim.

→How old was I then?

3) My mother told me that My Gran and Pappy **often** slept less than an hour or two (JG35)

→ When did my Gran and Pappy sleep?

→ My Gran and Pappy slept less than an hour or two then.

4) I can **always** borrow two dollars and a half.(EH14)

Men ikki dollar ellik sentni xohlagan paytimda qarz olishim mumkin.

→ When can you borrow two dollars and a half

→ I can borrow two dollars and a half then.

5) I let you carry things **when you were five years old.**

Men anjomlarni tashib kelishga besh yoshingdan ruxsat berganman.

→ When did you let me to carry things?

→ I let you carry things then.

6) **Every day** is new day. Har kuni bu yangi kun hisoblanadi. (EH12)

→ When is new day?

→Then is new day.

7) Then **when luck comes** you are ready. (EH13)

Qachonki omad kelganda sen unga tayyor turishing kerak.

→When you are ready?

→ You are ready then.

8) I am afraid he will never play the piano again as they left the center.

U markazni tark etgach hech qachon pianino chalmaydi deb o'ylayman.

→When he won't play the piano again?

→I am afraid he will not play the piano then.

9) That evening he stopped at the table and tousled my hair.

O'sha kechqurun u stol yonida to'xtadi va sochimni to'zg'itib yubordi.

→ When did he stop at the table and tousled my hair?

→ Then he stopped at the table and tousled my hair

10) She had lost both legs **before** she was even old enough to walk on them. (HCTS58)

→ When did she lose her both legs?

→ She had lost her both legs then.

11) Tomorrow is the eighty-fifth day. Ertaga sakson beshinchi kun. (EH14)

→ When is the eighty-fifth day?

→ The eighty-fifth day is then.

12) She had lost both legs **before she was even old enough to walk on them.** (HC58)

→ When did she lose her both legs?

→ She had lost both legs then

13) Max is very perceptive – but he isn't **always** right. (K.H.A.T.78)

14) Puppy and I knew this before we got out of the truck. (J.G.A.P.H. 23)

Buvam va men buni mashinadan tushishdan oldin bilar edik.

→ When did Pappy and I know this?

→ Pappy and I Knew this then.

15) This routine never varied. (H. C.T.S.66)

→ When did this routine vary?

→ This routine varied then.

16) Before the Mexicans arrived, we'd had a portable fan we put near the screen door.

→ When did you have a portable fan?

→ We'd had a portable fan we put near the screen door then.

17. She never walked to school – her father drove her. (JGAPH24)

U hech qachon maktabga piyoda bormagan—uning otasi mashinada olib borgan.

When didn't he walk to school?

He walked to school then.

18) Come and see me again tomorrow morning. (JG30)

When do I come and see you?

I arrived in London yesterday and two strange things have happened already.

(J.G.A.P.H. 30)

Ravish so'z turkumi predlogli, fe'lli, ravishli birikmalar tarkibida kelib, kvolifikativ (holat) sintaksemani ifodalashini o'zida musassamlashtiradi. Ravishli birikmalarning temporal sintaksemani ifodalashini gapni how? So'roq so'zi yordamida so'roq gapga aylantirish eksperiment metodi varavishli birikmani then payt holi bilan almashtirish orqali isbotlash mumkin.

1) Gillian eyed him, then smiled **wryly**. (KH66)

How did he smile?

He smiled so.

Gillian unga qaradi va so'ngra istehzoli jilmaydi.

2) Our people can't **effectively** search down there. (KH65)

Bizning odamlarimiz u yerda samarali izlanish olib bora olishmaydi.

How can't our people search there?

Our people can't search so down there

3) "Good evening," she said politely. (KH66)

"Salom" dedi u xushmuomalalik bilan.

4) She smiled faintly. (KH69) U rangi oqargancha jilmaydi.

→ How did she smile?

→ She smiled such

5) She nodded seriously. (KH70) U jiddiy holda bosh ir'gadi.

→ How did she nod?

→ She nodded such

6) Pardon me for not thinking too **clearly** when I was leaving. (KH79)

Ketayotgan paytimda chuqurroq o'ylamaganim uchun uzr so'rayman.

How didn't I hink when I was leaving?

7) In July 1918 he was seriously wounded by a mortar shell.(EH2)

U minomyot o'qidan jiddiy yaradorlandi.

→How was he wounded in July 1918 by a mortar shell?

→ He wounded such in July 1918 by a mortar shell

8) The culture of the National Guard is one not easily understood by professional soldiers. (H.C.T.S. 45)

Milliy gvardiya madaniyati qiyinligi professional soldat ham osonlikcha tushuna olmaydigan darajada edi.

→How was the culture of the National Guard?

→The culture of the National Guard was such.

Ravish so'z turkumi predlogli, fe'lli, ravishli birikmalar tarkibida kelib, kvontativ (daraja-miqdor) sintaksemani ifodalashini o'zida musassamlashtiradi. Ravishli birikmalarning temporal sintaksemani ifodalashini gapni how?, how many times? How much? so'roq so'zlari yordamida so'roq gapga aylantirish eksperiment metodi varavishli birikmani such bilan almashtirish orqali isbotlash mumkin.

1) It couldn't happen **twice**. (EH12)

Bir narsa hech qachon ikki marta sodir bo'lmaydi.

It couldn't happen such.

2) My mother told me that my Gran and Pappy often slept **less** than an hour or two ... .(JG35)

→ How much did my Gran and Pappy sleep?

→My mother told me that my Gran and Pappy often slept **such**.

3. She had lost both legs before she was even old **enough** to walk on them. (HC58)

→How old did she lose her legs?

→She was old such to walk on them.

4) Isn't that reason enough? (KH69)

Shu sabab yetarli emasmi?

→How much is that reason?

→The reason is such.

5) Morgan hadn't enjoyed herself so much in years. (K.H.A.T.70)

Yillar davomida Morgan bunchalik ko'p rohat olmagan edi.

→How much hadn't she enjoy in years?

Kauzal sintaksema odatda ravish yoki ravishli birikmalarga Why? Nima uchun? so'roq so'zi orqali savol qo'yish bilan yoki ravishli birikmalarni "for that" predlogi bilan o'rin almashtirish lingvistik transformatsiya metodlari orqali aniqlanadi.

1) I did all the talking because my dad had certainly been more eventful than his.

(JGAPH 28)

→Why did you do all talking?

→I did all the talking for that.

2) Because the sun and rain had cooperated, the leaves were full and thick and weaving together. (J.G.A.P.H. 27)

→Why the leaves were full and thick and weaving together?

## XULOSA

Soʻzlarni turkumlarga ajratish juda qadimdan boshlangan. Tildagi soʻzlarning umumiy grammatik maʼno va vazifalariga koʻra maʼlum guruhlariga boʻlinishi soʻz turkumlari deb yuritiladi. Qadimgi hindlar turkumlarni uchga ajratishgan: otlar, feʼllar, yordamchilar. Arablar ham uchta turkumni farqlashgan: ismlar, feʼllar, yordamchilar. Qadimgi yunonlar, jumladan, Arastu feʼl va yordamchilarni ajratgan holda ismlar ichidan sifatlar, sonlar va olmoshlarni farqlaganlar (demak oltita turkumni farqlashgan). Gʻarb va rus tilshunoslari mustaqil soʻz turkumlarini oltitaga ajratadilar: ot, sifat, son, olmosh, feʼl va ravish. Rus tilshunoslari ot, sifat, son va olmoshni ism bildiruvchi soʻzlar sifatida ajratadilar. Turkiy tilshunoslikda ham qadimdan ot, sifat, son va olmoshlarni ajratishgan<sup>18</sup>. Maʼlumki, ot, sifat, son va olmoshlar egalik, kelishik va koʻplik shakllari bilan oʻzgaradi. Egalik va kelishik shakllari bu turkumlarni, shuningdek, harakat nomi, sifatdosh va taqlid soʻzlarni ham oʻzgartirishi mumkin. Shu sababli egalik, kelishik va koʻplik shakllari bilan oʻzgaradigan barcha turkumlarni bitta umumiy nom – ismlar deb birlashtirish mumkin.

1. Mustaqil soʻz turkumlari lugʻaviy maʼnoga ega boʻlib, biror soʻroqqa javob boʻladigan, gap ichida maʼlum sintaktik vazifa bajaradigan soʻzlardir. Bu guruhga ot, sifat, son, olmosh, feʼl, ravish kiradi.
2. Yordamchi soʻzlar yakka holda maʼno anglatmaydigan, gap boʻlagi boʻla olmaydigan, Grammatik maʼnolarni ifodalashga xizmat qiladigan soʻzlardir. Ular mustaqil soʻzlar va ayrim gaplar orasidagi munosabatni anglatishga xizmat qiladi, soʻzga va gapning mazmuniga turli qoʻshimcha maʼnolar qoʻshadi. Yordamchi soʻzlarga koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama kiradi.
3. Alohida olingan guruh soʻzlar lugʻaviy maʼno bildirmaydigan, lekin baʼzan gap boʻlagi vazifasini bajaradigan soʻzlardir. Bularga modal soʻzlar, undov soʻzlar, taqlid soʻzlar kiradi.

Boshqa tillarda boʻlgani kabi ingliz tilida ham barcha soʻzlar anglatgan leksik-grammatik maʼnosi, morfologik formasi va oʻzaro sintaktik aloqaga

---

<sup>18</sup> Hamroyev M.A. Ona tili. Toshkent 2008

kirishish hamda gapdagi vazifasiga ko`ra ma`lum guruhlarga bo`linib, ular grammatikada so`z turkumlari deb yuritiladi.

Ingliz tilidagi so`z turkumlarini turli olimlar turlicha talqin qiladilar. Masalan: 1) Dionskiy o`zidan avvalgi olimlarning asarlariga tayanib so`zlarni quyidagi sakkiz turkumga ajratadi: ot, fe`l, sifatdosh, artikl, olmosh, predlog, ravish, bog`lovchi.

Tilshunoslar Dionskiy va Diskolning kamchiliklarini ularning izdoshlari, ya`ni shogirdlari to`ldirishdi. Grammatik kategoriyalarni takomillashtirish yo`lida stoiklar tomonidan quyidagi ishlar qilindi.

4. So`z turkumlari tushunchasiga aniqlik kiritildi.
5. Tilda ifodalovchi va ifodalanuvchi elementlar borligi ko`rsatildi.
6. Ot kategoriyasiga sredniy rod tushunchasi kiritildi.

II Bobda biz ravish so`z turkumi ta`rifi va yasalishiga oid muammolarni ko`rib chiqdik, ta`rif bo`yicha, ravish so`z turkumiga xos xususiyatlarda kamchilik mavjud bo`lib, ravish darajalari faqat ba`zi ravishlarda mavjudligi va ayrim ravishlarning ba`zi fe`llarga birikishi natijasida yangi ma`no hosil bo`lishi, ya`ni fe`lli fraza hosil bo`lishi asosiy muammolardir. Masalan: Bring up birikmasi tarbiyalamoq deb tarjia qilinadi. "To bring" olib kelmoq, "up" yuqorida, yuqori" ma`nolarini ifodalaydi. Ikkala sozni biriktirganda butunlay yangi so`z hosil bo`ladi, ya`ni ikkala so`z ham asl ma`nosini yo`qotadi. Bu holatga turli olimlar turlicha fikr bildirishgan. "To bring up" ni ba`zi olimlar fe`lli fraza deb qarashsa, ba`zi olimlar esa ularga so`z sifatida qarashadi. Ikkinchi qismini qaysi so`z turkumiga kiritish mumkin, degan savol tug`iladi. Professor H.Palmer ularni "Preposition-like adverbs", ya`ni predlogga o`xshash ravishlar, deb ataydi yoki ularni alohida tash kerak deyishadi. Professor A.Smirnidskiy ham ushbu fikrga qo`shiladi. Professor I.Anichkov fikricha, ular ravishlarning alohida shakli bo`lib, ularni "adverbial postpositions" deb ataydi. Professor N.Amasova esa ularni so`zlarning maxsus shakli hisoblaydi va "postpositives" deb nomlaydi.

Bundan tashqari biz ravish so`z turkumining gapdagi o`rni va vazifasi haqida, ravishning sintaktik-semantik belgisi haqida so`z yuritdik.



Prof.A.M. Muxin nazariyasiga asosan sintaksemlar asosiy uchta kategorial guruhga bo`linadi. Ular quyidagilar:

1. Substansial sintaksema – bu sintaksema o`zida predmetlik xususiyatini aks ettiradi.
2. Prosesual sintaksema – bu o`zida ish – harakatni aks ettiradi.
3. Kvalifikativ sintaksema – o`zida belgini aks ettiradi.

Sintaksemalarning gapda u yoki bu komponent pozitsiyada (o`rnida) kelishi, komponentlar va sintaksemlar o`rtasidagi yaqin bog`liqlikni analiz qilishga majbur etadi. Mazkur bitiruv ishning ob`ekti bo`lgan ravishlarning asosini kvalifikativ (belgi) sintaksema tashkil etadi. Demak, biz o`rganayotgan “over” predlogli birikmalarining barchasini umumiy substansial (ot) belgi ostida birlashadi va bir – biridan lokativ, temporal, pauzali, ob`ekt kabi belgilar bilan farq qiladi.

Mazkur ishga asos bo`lgan tushuncha va terminlar asosan professor A.M.Muxin<sup>19</sup> tomonidan ishlab chiqilgan bo`lib, uning izdoshlari tomonidan muvaffaqiyatli tarzda qo`llanib kelinib, yetarlicha izlanishlar olib borishmoqda.

A.M Muxin ijodining o`ziga xos xususiyati shundan iboratki, u tilshunoslik terminlarini ishlatishda barcha tillarni bilishi uchun, ularning lotin tilidagi nomlarini saqlab qolganlar (lokativ, substansial, subordinativ, predikativ, kauzal, allativ, temporal, kvalifikativ, kvantativ kabi).

Tilshunos olim A.M.Muxin nazariyasiga binoan ravish so`z turkumini badiiy asarlardan olingan misollarimiz asosida sintaktik-semantikasini o`rganamiz. Ravish so`z turkumida u yoki bu sintaksemaning mavjud ekanligini aniqlash uchun quyidagi lingvistik eksperiment metodlaridan foydalanamiz.

- 1) Tushirib qoldirish transformatsiyasi
- 2) Almashtirish semantikasi transformatsiyasi
- 3) So`roq gap transformatsiyasi

---

<sup>19</sup>A.M.Muxin “Подляжи и предлоги в кн категория подежа в структуре и система языка (материали научной конфенции) 1971

#### 4) Verballashtirish transformatsiyasi

Biz izlanish olib borgan ravish so'z turkumi asosiy (yadro) komponentlarini ifodalanish umumiy holatda substansional sintaktik –semantik belgiga xos ekanligini ko'rsatdi va nokategorial sintaksemalar sifatida lokativ, temporal, kvalifikativ, kvontativ, kauzal, ob`ektiv sintaksemalarni ifodalab kelishi mumkin. Ravishlarga xos ushbu sintaktik-semantik belgilarni asliyatdan olingan misollar orqali o'rganib chiqdik.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

### Ilmiy adabiyotlar

1. Каримов И.А. Баркамол авлод - Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – 64 б.
2. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.,2012
3. “Xalq so'zi” gazetasi 2017 y 21 aprel soni
4. Бархударов Л. С, Штелинг Д. А. «Грамматика английского языка» М. 1973.
5. Беляева М. А. «Грамматика английского языка» М. 1984.
6. Бўронов Ж. “Инглиз тили грамматикаси” Т. 1974.
7. Бандарко А. В. «Грамматическая категория и контекст» Наука, Ленинград. 1971.
8. Gafforov M. “Ingliz tili grammatikasi” T.: 2002
9. Гордон Э. М. «Грамматика английского языка» М. 1974.
10. Jespersen O. “The philology of grammar” L. 1954. p277.
11. Пьюш А.М. “The Structure of Modern English” L. 1971.
12. Каушанская В. Л. «Грамматика английского языка» Л., 1967.
13. Качалова К. Н., Израилович Е. Е. «Практическая грамматическая английского языка» М. ,1996.
14. Мухин А.М. “Подлежащие и предлоги в кн категория подлежащих в структуре и система языка (материалы научной конференции) 1971
15. Мухин А. М. «Синтаксический анализ и проблемы уровней языка» Л., 1980.
16. Palmer N.E. “A Grammar of Spoken English”, 1930.
17. Qiyomov R., Qiyomova G. Hozirgi zamon ingliz tilida “after” prelogli birikmalarning leksik va sintaktik-semantik tahlili” T., 2007
18. Tursunov U, Muxtorov J.”Hozirgi o'zbek adabiy tili” T.:O'zbekiston, 1992

### **Badiiy adabiyotlar**

1. Arthur Conan Doyle “The Hound of the Baskervilles” New York, 2004.
2. Ernest Hemingway “The Old Man and the Sea”, T., 2016
3. Harold Coyle “They are Soldiers”. New York. 2004 (HCTS)
4. John Grisham “A Painted House” New York. 2002
5. Kay Hooper “Always a Thief”. New York, 2003 K.H.A.T.

### **Lug’atlar**

1. Axmanova O.S “ Rusko – angliyskiy slovar ” M.,1987
2. “Camridge” prpgramme Electronic version, Cam., 2003
3. Oxford Russioan Dictionary. M., 2004
4. Oxford Advanced learner’s Dictionary. Oxford University Press, 1999.
5. English-Uzbek Dictionary T.:”Yangi asr avlodi”, 2015

### **Ilova 1.**

—————→ Eksperiment o’tkazish mumkin bo’lgan holat.

